

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI
SHARQ FILOLOGIYASI VA FALSAFA FAKULTETI
HORIJIY SHARQ MAMLAKATLARI ADABIYOTI KAFEDRASI

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu: HOZIRGI DARIYZABON ADABIYOTIDA

AYOLLAR OBRAZI

(Rahnavard Zaryob va Spujmay Zaryob hikoyalarida)

Bajardi: “Filologiya” ta`lim yo`nalishi
bitiruvchi kurs talabasi

Kabirova Nargiza _____
(imzo)

Ilmiy rahbar: “Eron-Afg`on filologiyasi”
kafedra filologiya fanlari nomzodi,

dotsent O.Z.Shokirov _____
(imzo)

ANNOTASIYA: Mazkur bitiruv malakaviy ishimizning asosiy maqsadi, hozirgi dariyzabon hikoyalarida ayollar obrazini yuqorida ko`rsatilgan ikki ijodkor asarlari misolida qanday talqin qilinayotganligini imkon qadar tahlil qilishdan iboratdir. Mazkur iwga Rahnavard Zaryob va Spujmay Zaryob hikoyalari asosiy manbaa bolib hizmat qildi.

Toshkent – 2012

Bitiruv malakaviy ishi himoyaga tavsiya etiladidi

Sharq filologiyasi va falsafa
fakulteti dekani f.f.n. dots.
Ziyamuhamedov J.T.

«_____» _____20__y

Xorijiy sharq mamlakatlari
adabiyoti kafedrası mudiri
f.f.n. dots. Muhibova U.U.

«_____» _____20__y

MUNDARIJA

Kirish.....	4
I bob. Afg`oniston ijtimoiy-siyosiy hayotida ayollarning o`rni.....	10
1.1. Afg`oniston matbuotida ayollar faoliyatining yoritilishi.....	11
1.2. Yosh qalamkash Mariyam va Nuriya hikoyalarida ayol.....	24
II bob. Hozirgi dariyzabon adabiyotida ayollar obrazi.....	30
2.1. Rahnavard Zaryob hikoyalarida oilaviy munosabatlar va unda ayolning o`rni masalasi.....	31
2.2. Supujmay Zaryob hikoyalarida ayol qismatining badiiy talqini.....	35
Xulosa.....	39
Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.....	43
Ilova.....	45

KIRISH

Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan keyin, O‘zbekiston jahonga yuz tutib, tobora yuksalish, yangilanish jarayoniga kirib kelganligi, fan va madaniyatning millat manfaati uchun xizmat qilmaydigan mafkura iskanjasidan qutilganligi olimlarimiz oldiga g‘oyat muhim va kechiktirib bo‘lmaydigan dolzarb vazifalarni qo‘ymoqda. Istiqlol tufayli nafaqat ajdodlarimiz merosiga, balki qardosh xalqlar merosiga, fanning zamonaviy muhim muammolariga dadilroq yondashish, zamondoshlarimiz ijodi bilan bir qatorda turli xalqlarning ilm-fan va madaniyati yutuqlarini teranroq tadqiq etishga va hayotimizga tadbiq etishga ya’ni jamiyatimizning barcha jabhalarini yanada rivojlantirishga imkoniyatlar kengaydi.

Mamlakatimiz ilmiy salohiyatining ildizlari nihoyatda chuqur va baquvvatdir. Muhtaram Prezidentimiz I.A.Karimov ta’kidlaganlaridek, “Mubolag‘asiz aytish mumkinki, fanimiz, aql-zakovat salohiyatimizning noyob va go‘zal binosiga, bundan ko‘p asrlar muqaddam poydevor qo‘yilgan edi. Mamlakatimizning fan va madaniyati juda qadim zamonlardan yuksala boshlaganini, uning chuqur va qudratli ildizlari borligini faxrlanib ayta olamiz. U asrlar davomida o‘zbek millatiga, butun insoniyatga tabiat sirlarini o‘rganishda, tibbiyot, falsafa, huquqshunoslik, ilohiyot, adabiyotshunoslik va tilshunoslikda ishonchli xizmat qilib kelmoqda”¹.

Demak, chuqur ildizlarga ega bo‘lgan adabiyotshunoslik fani yurtimizda yuzaga kelgan yangi tarixiy voqe’lik munosabati bilan hal qilinishi lozim bo‘lgan masalalarni faqatgina ozod xalq manfaati, milliy istiqlol g‘oyasi talablari darajasida tahlil va tadqiq etishga ma’suldir. Bu esa tadqiqotchidan tanlagan muammolarning muhimligi, dolzarbligi hamda tadqiq etish usullarining yangiligiga ko‘ra jahon andozalari bilan mos kelishi va ayni chog‘da milliy

¹Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo’sag’asida: havfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T, 1997. B.259

o'zligiga xosligini to'la namoyon eta olishini talab etadi. Shu ma'noda mustaqilligimizning dastlabki yillaridanoq, butun mamlakat miqyosida ta'lim-tarbiya, ilm-fan, kasb-hunar o'rgatish tizimlarini tubdan isloh qilishga, ularni saviyasini oshirish va qo'llab quvvatlashga muhtaram yurtboshimiz I.A.Karimov tomonlaridan nihoyatda katta e'tibor qaratila boshlandi. Bu borada yurtboshimiz quyidagi fikrni bildirib o'tadilar: "Ta'lim-tarbiya tizimidagi islohotlar boshlangan dastlabki yillarda, men jahon tajribasi va hayotida o'zini ko'p bor oqlagan haqiqatdan kelib chiqib, agar bu maqsadlarimizni muvafaqqiyatli ravishda, amalga oshira olsak, tez orada hayotimizda ijobiy ma'nodagi "portlash effekti"ga, ya'ni yangi ta'lim modelining kuchli samarasiga erishamiz"².

Hozirgi kunda har bir rivojlangan davlat o'zining boshqa sohalari qatorida adabiyotning rivojlanishiga, yangi-yangi asarlar bilan boyitishga katta ahamiyat beradi.

Afg'onistonda milliy mustaqillik tiklangandan so'ng, badiiy adabiyotni demokratlashtirish masalasi ko'ndalang qo'yildi. Mustaqillikning birinchi o'n yilida millatlararo aloqalarning mustahkamlanishi va boshqa adabiyotlarning ta'siri vositasida milliy adabiyot rivojlanishi jarayoniga sezilarli turtki berildi. O'zga xalqlarning tarjima etilgan asarlari bilan tanishish afg'on yozuvchilariga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.³

"Afg'onistonning zamonaviy dariy tili prozasi, asosan, 1919-yilda mustaqillikka erishilgandan so'ng rivoj topdi. XX asrga qadar adabiyotning keng tarqalgan turi-she'riyat edi. Ma'lumki, fors mumtoz adabiyotining eng yuksak cho'qqisi poeziyada bo'lgan, afg'on xalqlari ham, haqqoniy ravishda o'zlarini unga

² Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. Ma'naviyat nashriyoti. Toshkent.:2008. 63-bet

³ Abdurahim Mannonov. Afg'oniston xalqlari fol'klori va mumtoz adabiyoti tarixi. Toshkent-2001. B-35

taalluqli merosxo`r hisoblaydilar. Binobarin, fors mumtoz she'riyatidagi traditsiyalar ularda hozirga qadar sezilib keladi”⁴.

“Afg`oniston jamiyati ma'naviyatiga ijobiy ta'sir ko`rsatgan sotsial-iqtisodiy va madaniy o`zgarishlar hamda mustaqil rivojlanishning yangi bosqichlariga o`tish, voqelikni tasvirlovchi yangi badiiy shakllar paydo bo`lishiga olib keldi. Afg`on yozuvchilarining milliy munosabatlarni badiiy tasvirlash yo`lidagi izlanishlari, ularni prozaga yetakladi. Mustaqillikning yigirmanchi yillariga kelib, dariyzabon adabiyotida yangi xildagi asarlar paydo bo`ldi. Said Muhammad Ibrohim Olamshoxiyning “Qorong`u tun, yorug` kun”(1938), Jaloliddin Hushnavoning “Xanjar” (1938), Miraminiddin Ansoriyning “Kimyo izlash” (1939) asarlari shular jumlasidandir”⁵.

“Afg`on adabiyotining birinchi tadqiqotchisi deb 1958-yilda “Zamonaviy Afg`oniston adabiyotiga bir nigoh” kitobi muallifi Muhammad Haydar Jobalni aytish mumkin. M.H.Jobal dariyzabon adabiyotning tiklanish va rivojlanish yo`llarini aniqlashga urinib ko`rgan. Qandaydir bir ma'noda, muallif nasriy turlarning (qisqa hikoyalar, badialar va maqolalar) rivojlanish masalalariga qo`l urgan. Uning fikricha, “...Eng keng tarqalgan nasriy tur, bu Mahmud Tarziy asos solgan maqola hisoblanadi...”⁶.

Shuningdek, nasriy turning xalq orasida keng yoyilishiga, Mahmud Tarziy tomonidan tashkil qilingan “Siroj-ul axbor” gazetasining roli ham katta bo`lgan. Dariyzabon adabiyotida asosan, dostonlar, ertaklar, rivoyatlar, qissalar, hikoyalar, latifalar, qo`shiqalar kabi nasriy turlari mavjud.

“Afg`on olimi Asadullo Habib, o`zining ikki jildlik “XX asr boshlaridan to Ikkinchi Jahon urushi oralig`idagi zamonaviy adabiyot” (1978) asarida nazm bilan bir qatorda badiiy nasrning ilk namunalarini tahlil qilgan. Shuningdek, muallifning

⁴ X.Асоев. Развитие жанров в прозе на дари. Душанбе - 1987. 3 стр.

⁵ А. Герасимова, Г. Гирс. Литература Афганистана. Мос - 1963. стр 93.

⁶ M.H.Jobal. Negohe ba adabiyote musoer dar Afg`oniston. Kobul - 1958. B 76.

sayohatnoma, she'riy mansura, nasriy adabiy turlarini belgilashdagi ishlarini alohida ta'kidlash zarur"⁷.

Afg'onistonning dariyzabon adabiyoti o'zining tiklanishi va rivojlanishi yo'lida e'tiborini ma'rifiy muammolarni hal etishga ham ko'p e'tibor qaratgan. Biz bir narsani bilishimiz kerakki, Fatxiy, Ansoriy va Muso Himmatlarning ijodidagi ma'rifiy oqim, XX asrning birinchi o'n yilliklarida asarlar bitgan ma'rifatparvarlardan sezilarli farq qiladi, chunki ular traditsion mavzulardan chetga chiqishga harakat qilganlar, o'z g'oyalarini yangi nasriy turlarda: hikoya, qissa, romanlarda ifodalaganlar.

Mavzuning dolzarbligi va o'rganilganlik darajasi

“Biz afg'on yozuvchilarining ellik yil mobaynidagi ijodlarini tahlil qilar ekanmiz, 16 ta qissa, 10 ta roman va 10 ta hikoyalar to'plami nashr etilganligining guvohi bo'ldik. Bular qatoriga davomiy nashrlarda chop etilgan juda ko'p prozaik asarlarni qo'shish mumkin. Afsuski, ularning ko'pchiligi na Afg'onistonda, na boshqa mamlakatlarda ilmiy tomondan o'rganilmagan”⁸.

Zamonaviy dariyzabon nasrini tadqiq etar ekanmiz, uning sifat darajasi oshib borganini ham sezamiz. Ularda jamiyat ichidagi muammolarni tahlil qilish chuqurlashganini, shaxsning o'rab turgan muhit bilan o'zaro aloqasi ko'rsatila boshlanganini, hamda asosiy qarama-qarshi sinflararo munosabatlar tasvirlanganini kuzatamiz.

Zamonaviy dariyzabon nasriy yozuvchilari inson qiyofalarini har tomonlama, chuqur va yorqin tasvirlashga harakat qilib, psixologik uslubga ham murojaat etdilar, ular, ilgari kuzatilmagan holatlar: ichki hissiyotlarni, o'y-xayollarni berishga va manzaralarni ko'rsatishga urina boshladilar.

“Keyingi 15-20 yilda ushbu adabiyotning sifat ko'rsatkichi katta qadam tashladi, bu birinchi navbatda, jamiyat muammolarini yaqqol va haqqoniy

⁷ A. Habib. Adabiyote musoer. Kobul - 1978. B 45.

⁸ X.Асоев. Развитие жанров в прозе на дари. Душанбе - 1987. 3-4 стр.

ko`rsatib berib, yorqin, keng ko`lamli qiyofalar yaratgan, turli nasriy shakllardan, uslublardan foydalanib ijod qilgan mualliflar xizmatidir. Ushbu adabiyot jamiyatdagi ayrim muammolarni, tartibsizliklarni, tengsizlik, zo`ravonlik dunyosini badiiy tasvirlashda muvaffaqiyat qozondi. Lekin, afg`on xalqlarining odatlari, yashash tarzlari va xarakterlarini ifodalovchi asarlar juda kam”⁹.

Bugungi kun dariyzabon adabiyotida zamonaviy nasriy turlar ko`lami juda keng. Lekin ularning ichida hikoyachilik boshqalariga nisbatan kengroq rivoj topmoqda. Chunki hikoya xalq hayotini osonlik bilan aks ettirgani sabab ham aholi o`rtasida tez tarqaladi, ular hayotini ochib beradi. Ulardagi obrazlarning tanlanish jarayoni bugungi Afg`oniston ijtimoiy hayotini yaqqol ko`rsatib turadi. Ma`lumki, adabiyotning bosh obrazi bu – inson. Ayol uning yaratuvchisidir. Shularni inobatga olgan holda biz aynan zamonaviy dariyzabon adabiyotida ayol obrazini tanladik va uning o`rganilish jarayonini muhim deb topdik. Chunki jamiyatning qay darajada taraqqiy etishi, insonlarning farovonligining barchasi ayol siymosida namoyon bo`ladi.

Aynan dariyzabon adabiyotida bu mavzu to`la tahlil qilib o`rganilmagan. Shu sababdan ham bu mavzuning chuqurroq tahlil qilib o`rganishga qaror qildik.

Bizning adabiy tadqiqotimizning asosi bo`layotgan ayol obrazi quyidagi zamonaviy dariyzabon adabiyoti vakillari ijodinining ma`lum qismini qamrab oladi: Akrom Usmon, Babrak Argand, Qadir Habib, Rahnavard Zaryob, Spujmay(Rauf) Zaryob, Maryam Mahbub va boshqalar.

Tadqiqot manbalari

Tadqiqotimizga asosiy manba sifatida hozirgi dariyzabon adabiyoti manbalaridan olingan “زنان افغانستان” [Zanon-e Afg`oniston]-Afg`oniston ayollari, “كابل” [Kobul]-Kobul, “ژوندون” [Jvandun]-Hayot, “انيس” [Anis]-Anis, “فرهنگ مردم” [Farhang-e mardom]-Xalq hayoti, “ايراده” [Iroda]-Iroda , “ارمان ملي” [Armon-e

⁹ Маннанов А.М., Инамходжаев Р. Современная дариязычная литература Афганистана. Ташкент - 1986. 3 стр.

milliy]-Millat armoni, “هيواد” [Hivod]-Vatan, “ارشاد نسوان” [Ershod-e nesvon], “هنر” [Hunar]-Hunar kabi gazeta va jurnallardan, hamda adabiyotining yorqin namoyandasi, o`z hikoyalarida real voqelikdan uzoqlashuvchi, qahramonlar ichki kechinmalarini birinchi o`ringa olib chiquvchi, ularning og`ir ruhiy holatlarini ifodalovchi Rahnavard Zaryob va Spujmay(Rauf) Zaryoblarning ijodi tanlandi. Bular ichida faqat hikoya janri olindi. Tanlangan hikoyalar yangilikka intilish maqsadida asosan internet saytlari¹⁰dan olindi.

Ishning maqsad va vazifalari

Mazkur bitiruv malakaviy ishimizning asosiy maqsadi, hozirgi dariyzabon hikoyalarida ayollar obrazini yuqorida ko`rsatilgan ikki ijodkor asarlari misolida qanday talqin qilinayotganligini imkon qadar tahlil qilishdan iboratdir.

Bitiruv malakaviy ishimizning bosh vazifasi yuqorida ko`rsatilgan ikki ijodkor asarlari misolida afg`on ayollarining bugungi hayoti, ijtimoiy hayotdagi o`rni hamda mavqeyini to`plangan misollar asosida ochib berishdir.

Ishning amaliy ahamiyati va undagi ilmiy yangiliklari

Bitiruv malakaviy ishning yozilish jarayonida biz tanlab olgan ikki yozuvchi hikoyalarida bugungi dariyzabon adabiyoti ixlosmandalari uchun muhim va dolzarb bo`lgan, ularda qiziqish uyg`otishga sabab bo`luvchi hikoyalar jamlandi va o`rganib chiqildi. Asarlardagi quyidagi adabiy holatlar o`rganildi:

- ✓ Hikoyanavislarning original variantdagi hikoyalari manbalari;
- ✓ Hikoyalar yozilish tilining murakkablik darajasi;
- ✓ Personajlarning ijobiy va salbiy qiyofalari;
- ✓ Asosan ayol timsoli va uning talqini;
- ✓ Hikoyalardagi Ona, Singil va Yor obrazlari;

Ishning tuzilishi

¹⁰ Internet saytlari foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatida to`liq ko`rsatiladi

Bitiruv malakaviy ishi: kirish, ikki bob, xulosa, foydalanilgan adabiyot va manbalar ro'yxatidan iborat.

I BOB

AFG`ONISTON IJTIMOIIY - SIYOSIY HAYOTIDA AYOLLARNING O`RNI

Afg'onistonda bugungi kunda ayollar har sohada ilg'ordirlar. Buni ularni xoh adabiyot bo'lsin, xoh siyosiy sohada bo'lsin, boshqa yurt ayollari bilan bemalol bellasha olishlarining guvohi bo'lishimiz mumkin.

“Afg'on matbuotining xabar berishicha hozirgi kunda Afg'onistondagi ishchi xizmatchilarning 34% ni afg'on xotin-qizlari tashkil qiladi. Ular Afg'onistonning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotida mamlakatning taraqqiy etishiga o'z hissalarini qo'shmoqdalar”¹¹.

Shundan ham ko'rinib turibdiki, Afg'oniston xotin-qizlari bugun hamma sohada ilg'orlik bilan faoliyat olib bormoqdalar. Jumladan ayollarning adabiyotga bo'lgan qaynoq qalblari so'zlarimizning isboti desak bo'ladi.

Bugungi kunda Afg'oniston xotin-qizlari kelajakka umid bilan boqib ertangi kun quyoshi ular bilan chiqishiga ishonishlari, ularning qilayotgan ishlari ertaga o'z natijasini berishiga ishonishlari quvonarli hol. Shu o'rinda Afg'oniston ayollarining ilm sohasida ham muvoffaqiyatlarga erishib kelayotganliklari kelajakda Afg'oniston adabiyoti yanada rivoj topishiga zamin bo'la oladi.

¹¹ “كابل” [Kobul] jurnali. Kobul-2007. aqrab oyi. B-6.

1.1. Afg`oniston matbuotida ayollar faoliyatining yoritilishi

O`zbekiston bilan Afg`oniston o`rtasidagi madaniy va iqtisodiy aloqalar do`stona yo`lga qo`yilgandir. O`zbekistonning Afg`onistonda qurayotgan inshootlari, O`zbekiston va Afg`oniston do`stlik jamiyati orqali qilinayotgan hamkorlik fikrlarimizning dalili bo`la oladi.

O`zbek - afg`on madaniy aloqalari Afg`oniston matbuot organlari bo`lmish: “زنان افغانستان” [Zanon-e Afg`oniston]-Afg`oniston ayollari, “كابل” [Kobul]-Kobul, “ژوندون” [Jvandun]-Hayot, “انيس” [Anis]-Anis, “فرهنگ مردم” [Farhang-e mardom]-Xalq hayoti, “ايراده” [Iroda]-Iroda, “ارمان ملي” [Armon-e milliy]-Millat armoni, “هيواد” [Hivod]-Vatan, “ارشاد نسوان” [Ershod-e nesvon] “هنر” [Hunar]-Hunar kabi gazeta va jurnallarning sahifalarida keng yoritilib kelinmoqda.

“Yuqorida keltirib o`tilgan “زنان افغانستان” nomli jurnal Afg`oniston xotin-qizlar markaziy kengashining organi bo`lib, unda hozirgi afg`on xotin-qizlarining turli sohadagi hayotlari, jamiyatda tutgan o`rni haqida lavhalar berib boriladi. Mazkur jurnal 1982-yilda ta`sis etilgandir”¹².

“Afg`oniston qadimiy mamlakat bo`lib, o`zining uzoq tarixiga ega, unda erkaklar bilan ayollar iqtisodiy, madaniy, ijtimoiy sohalarda yelkama-yelka turib kelganlar. Shuni eslash lozimki, ayollarning o`rni har qanday insonlar jamiyatida muhim ahamiyatga ega bo`lgan, zero, “زنان با يك دست گهواره و با دست ديگر جهان را” “ميچنباوند” [Ayollar bir qo`li bilan beshikni, boshqasi bilan esa dunyoni tebratadilar] degan fikr mavjud, yana shunday fikr ham borki,

¹² O`zbekistonda ijtimoiy fanlar. Toshkent - 1973. B-60.

“ زن مخلقیست خد و آست بین بشرو فرشته ” [Ayol farishta va inson o`rtasidagi maxluqotdir]. Afg`onistonning uzoq va mashaqqatli tarixi davomida ayollar juda ko`plab zulmlarga, urush va janglarga turli qiyinchiliklarga matonat bilan sabr qilib kelganlar. Kim, dariy she`riyatidagi yorqin quyoshlar bo`lmish afg`on qizi, qahramonlar: Robiya Balxiyni va Malika Surayyolarning sabr-toqatlarini, matonatlarini rad eta oladilar? Hech kim! Ko`hna Afg`oniston davlatida ayollarning ziyrakligi va ziyoliligi mashhurdir, zero doimo ayollar huquqlari keng miqyosda himoya qilingan. 1919-yil Afg`oniston mustaqillikka erishganidan so`ng Olihazrat Omonulloh Xon G`oziy davrida ayollar huquqlari rasmiy ravishda tan olingan. Shundan beri ayollar jamiyatning turli ijtimoiy, madaniy sohalarida faoliyat ko`rsatib kelmoqdalar”¹³.

Chunonchi, nashriyot sohasida anchagina ilgarilab ketdilar, masalan: “ارشاد نسوان” [Ershod-e nesvon] gazetasini chiqarish bilan ayollarning jamiyatdagi o`rni ko`tarila boshladi.

“Mamlakat istiqloli arafasida qiyinchilik paytlarida davlatning turli sohalarida faollik ko`rsatdilar. Alohida takidlash lozimki, ziyolilikni o`stirishda ayollarning o`rni juda katta va ahamiyatli bo`ldi. Olihazrat Omonulloh Xon G`oziyning davrida uning ayoli Malika Surayyo davlatdagi ayollarning huquqlarini asrash, ularni jamoat ishlariga jalb etish, qizlarni ta`lim-tarbiyali qilish kabi bir qator ishlarni amalga oshirganlar. 1299-hijriy-shamsiy yilda Kobul shahrida Jahon ayollari rivojlangan jamoasi Afg`onistonning bir qator zamondan orqada qolgan ayollari guruhlarini haqida so`z aytgan edilar. Shundan so`ng, majlisda ishtirok etgan barcha ayollarning fikrini umumlab, Afg`onistonda birinchi ayollar maktabini ochishga qaror qilindi. Bu majlisda Malika Surayyo ham so`zga chiqib, ushbu birinchi “مستورات” [Mustavarot] maktabidagi nazorat ishlarini o`z zimmasiga oldi. Shu davrda Afg`onistonlik bir qator qizlar va ayollar Turkiya davlatiga malaka oshirish uchun yuborildi. Ayollar hamisha ortda qolmaslikka, qorong`u va

¹³. “زنان افغانستان” jurnali. Kobul-2002. 2-son. B-7.

zulmatdan yorug`likka chiqishga, xalqning ziyoliligini oshirishga, davlatda ayollar ro`lini kengaytrishga harakat qila boshladilar.

Davlat ayollari orasida ijtimoiy xotin-qizlar qo`mitasi faoliyat yuritar edi. Lekin urush hali ham davom etardi. Urush tugagach, Afg`onistonning barcha joylaridagi ayollar bir stol atrofiga yig`ilib muzokara qildilar. Unda Afg`onistonda kelajakda (5 yilda) amalga oshirilishi kerak bo`lgan masalalar ko`rib chiqildi. Shoh Zohirshoh va Afg`onistonning oldingi podshosi tomonidan hukumatda ayollar ro`lini oshirish kerakligi haqida qaror qabul qilishdi, chunki o`sha paytlarda Afg`onistonda ayollar soni erkaklardan ancha ko`p edi. Bu loyihalar 1371-yilda amalga kirishi kerak edi, lekin ichki va tashqi nizolar sabab, doktor Najibulloh boshchilik qilayotgan ziyolilashtirish rejalari ham barham topdi, chunki davlat hokimiyatini “Mujohidlar” o`z qo`llariga olishdi. Bir qancha vaqt ayollar o`qish va ishlashni davom ettirdilar. Ayollarga Islomiy “Hijob” ta`sis etildi. Lekin tez orada bu qarorni o`zgartirishga kirishishdi. Ichki urushlar boshlandi. Davlatda ziyolilashib borayotgan bir davrda, ayollar ya`na ishlash va bilim olishdan mahrum bo`ldilar. Keyin esa navbat “Tolibonlarga” keldi”¹⁴.

“Tolibonlar diniy-sunniy mazhabidagi oqim vakillari bo`lib, ular milliy an`ana va madaniy odatlarga qarshi edilar, ular maktablar eshigini qizlar va ayollar uchun butunlay yopib qo`ydilar va ularni davlat ishlarida ishlashdan chetlatdilar. Tolibonlar nafaqat ayollarga nisbatan zulim ko`rsatdilar, balki Afg`onistonning dunyo xalqi oldida turgan tarixiy yodgorliklari va qadimiy madaniyatiga ham jiddiy zarar yetkazdilar, sindirib talon-taroj qildilar. Afg`onistonlik erkak va ayollarning ziyolilikka bo`lgan kurashlari davlat ichida ham tashqarisida ham, davom etardi. Bu muammolar radio, TV, jahon matbuotlarida ham yangrar edi. BMT ham Afg`onistonlik ayollar huquqlarini himoya qilish uchun o`z yordamini ko`rsatar edi”¹⁵.

¹⁴. “ارشاد نسوان” jurnali. Internet sayti: www.pajhwok.com

¹⁵. Internet sayti: www.afghanasamai.com

Shunday tahlikali vaziyatda ham Afg`oniston ayollarining haq - huquqlarini himoya qilish, jipslashtirish va ularni qo`llab quvvatlash hamda boshqa shaharlardagi muxojir afg`on ayollari, asosan uzoq joylarda qiyin sharoitlarda yashayotgan afg`on ayollari bilan birlashishlari maqsadida Bishkek shahrida bir ijtimoiy yig`ilish o`tkazdilar.

“Bishkek shahrida 1998-yilning oktabr oyida ziyoli ayollar ishtirokida majlis bo`lib o`tdi. Bu majlisda 20 nafar ayol ishtirok etib, ularning 10 nafari Afg`onistondagi “ رابعه بلخى ” [Robiya-ye Balxiy] muassasasining faol a`zolari edilar va bu yig`ilishni afg`on ayollari “ انجمن رابعه بلخى ” [Robiya-ye Balxiy anjumani] deb atadilar. “ انجمن رابعه بلخى ” [Robiya-ye Balxiy anjumani] 1999-yilning 18-noyabr oyida oldindan anjuman rahbarlari ko`magi bilan tayyorlangan nizom asos va Qirg`iziston adliya vazirligi tomonidan rasman tashkil etilgan. 2000-yilning 29-aprelida birinchi marotaba naqqoshlik asarlari, tikuvchilik, kashtachilik, zardo`zlik, afg`on milliy taomlari ko`rgazmasi “Qirg`iz stil” ayollar anjumanlari saroyida o`tkazildi. Unda afg`onistonlik ayollar, “Qizil yarimoy” tashkiloti vakillari, Qirg`iziston davlati vakillari, va Afg`onistonlik bir guruh yuqori mansabdor shaxslar ishtirok etishdi. Bu majlisda anjumanning bir yillik rejalari ko`rib chiqildi. Afg`on liboslari va afg`on milliy taomlari ham ko`rgazmaga qo`yilgan edi. Bu esa ishtirokchilarning diqqatiga va qiziqishlariga sabab bo`ldi.

“ رابعه بلخى ” [Robiya-ye Balxiy] anjumani afg`on bolalariga o`yinchoqlar yasash, qog`ozdan turli narsalar yaratish haqidagi fikrini majlisda bayon etdi.

2000-yilning 1-noyabrida Qirg`iziston “Qizil yarimoy” jamiyatidan anjumanga birinchi yordam ko`rsatildi va bu yordamlar naqqoshlik, tikuvchilik, kompyuter sohalariga yo`naltirilgan edi. “Robiya-ye Balxiy” anjumanining barcha yo`nalishlari, nizomlari 7 oy davomida ishlab chiqilgan edi. 2000-yilning 8-dekabrida anjuman saroyida, naqqoshlik va kashta tikish bo`yicha ko`rgazma

tashkil etildi va unda afg`on milliy taomlari ishtirokchilar diqqatini o`ziga tortdi va qatnashchilar tomonidan katta qiziqish bilan kutib olindi”¹⁶.

Afg`onistonda ro`y bergan tarixiy inqilob mamlakatdagi ayollarga o`z haquqlarini qaytarib olishlariga imkon berdi. Hozirda mamlakatning ayollari ilmiy, ijtimoiy, ishlab chiqarish, sohalarida hatto qurolli mudofaa jabhasida ham qo`ldan kelgancha, sobitqadamlik bilan yorqin kelajak uchun mehnat qilib o`z hissalarini qo`shmoqdalar.

Bugun afg`on ayoli uydagi tutqunlikdan davlat idoralariga borishga qodir va o`zining qaysi sohada qobilyati bo`lsa, namoyon eta oladigan bo`ldi. Yana savodsizlarga o`qituvchilik qilish, oliy ta`lim muassasalarida ishlash va dars berish, shuningdek, mamlakatni ertangi kuni bo`lgan yosh avlodni tarbiya qilishdek vazifalarga qo`l urmoqdalar.

Mamlakatning kelajak avlodlarini tarbiyalash va ularga ta`lim berish uchun bugungi ta`lim sistemasidan foydalanish kerak va ularga barcha shart-sharoitlarni muhayyo qilish lozim. Bu borada ham Afg`onistonda chop etilayotgan “فرهنگ” [Farhang-e mardom]-Xalq hayoti gazetasida Afg`oniston xotin-qizlarining biznes va adabiyotni birdek olib borayotganliklarini guvohi bo`lishimiz mumkin.

“Afg`on ayollari hatto o`z bizneslarini barpo qilyaptilar, afg`on ayollari yillab davom etayotgan ichki nizolardan oshib o`tmoqdalar. Afg`oniston ayollarining iqtisod sohasida ham o`rni beqiyosdir. Ayollar madaniy jamiyatda faol, harakatchan va muhim o`rinni egallaydilar. Garchi erkaklar va ayollar turli xil fikrlarga ega bo`lsalarda, ayollarning fikrlari ishonchli va jamiyat rivojiga bog`liq turli yangi fikrlarni paydo bo`lishiga sabab bo`ladi.

Hatto biznesni yo`lga qo`yish, kompaniya tashkil qilish, oson ish bo`lmaydi. Endi Tolibon tuzumi ostida ayol boshi bilan do`kon ochishga jazm qilishni tasavvur qilavering. *Kamila Siddiqiy* shunday ishni amalga oshirdi. 1996-yilda

¹⁶“ژوندون” - Hayot jurnali. Kobul-2005. 13-son. B.26-27.

tolibonlar Kobulni qo`lga olganda Siddiqiyning ota-onasi va katta og`asi shaharni tark etib, uni kichik uka-singillariga bosh qilib qoldirishdi.

Ammo tolibonlar ayollarga erkak hamrohsiz uydan tashqari chiqishni ta'qiqlaganlari tufayli unga ko`chada ishlash man qilingan edi. Shuning uchun u o`z oilasini daromad bilan ta'minlash maqsadida Siddiqiy tikuvchilik biznesini boshlab yubordi. Uning ishlari yurishib, kengaydi va mahallasidan 100 kishini ish bilan ta'minladi.

2011-yilda bosmadan chiqqan "*Xayrxona chevari*" kitobida Gayl Tsemak Lemon Siddiqiyning mislsiz tadbirkorligi haqida hikoya qiladi. Bu risola tolibonlar tuzumi ostida biznes tashkil qilgan Siddiqiy va u singari boshqa ayollar bilan suhbatlarga bag`ishlangan.

Kamila Siddiqiyning nafaqat o`zi uchun, balki boshqa ayollarni ham ish bilan ta'minlash uchun biznes tashkil qilgani kishiga ta'sir qiladi. Boshqa ayollar ham shunga o`xshash maqsadni ko`zlashganmidi? yoki ularning aksariyati biznesni o`z ahvolini yaxshilash uchun yuritisharmidi? -degan savolga, Kamila Siddiqiy shunday javob berdi:

"Ikkalasini ham ko`rdim. Ko`plab ehtiyojli" tadbirkorlarni uchratish mumkin. Ayollarning ko`pchiligi ish boshlashadi, lekin o`zlari va oilalariga mos keladigan ishni topishmaydi. Ular yaxshi tadbirkor sifatida faoliyat ko`rsatolmaydilar, sababi biroq ular yuritayotgan faoliyat, kichik ko`lamdagi, tadbirkorlikdir. Qolaversa, odamlar ish yaratishning foydali ekanini darhol anglashadi, chunki bunday olib qaraganda, har bir oila boshlig`i yakka holda 12, 13, 14 nafar oila a'zolarini ta'minlashi kerak. Shunday ekan ish yaratishga juda ilhaq bo`lgan ayollarni ham, o`z oilasini omon saqlash uchungina harakat qiluvchi ayollarni ham ko`rishingiz mumkin"¹⁷.

¹⁷. "فرهنگ مردم". Internet sayti: www.afgan.ru

“Tolibon davrida bizneslar uy ichida bo`lishi kerak edi. Shuning uchun, ayollar paxta titishardi, ayollar chevarlik qilishardi, ayollar burqa tikishardi. Hozir esa xilma-xillik ancha yuqori. Ayollarni binokorlikda, biznes-konsalting yo`nalishida, quruq meva-cheva savdosida, futbol to`pi eksportida ko`plab uchratishingiz mumkin.

Umumiy biznes yuritish ayollar va erkaklar uchun birday qiyin. Afg`onistonda ayniqsa qiyin, negaki u yerning geografik joylashuvi noqulay, deyarli barcha mahsulot Pokiston yoki Eron orqali import qilinishi kerakligi tufayli, u yerdan eksport qilish ham, import qilish juda qimmatga tushadi. Lekin ayollar uchun sharoit yana ham og`ir, chunki ular ko`pincha ijtimoiy-iqtisodiy tarmoqlardan ancha yiroqlar. Demakki, ular uchun kapitalga ega bo`lish va korrupsiyani chetlab o`tish mushkulroq.

Lekin juda kichik biznesga ayollar nima topa olsalar borini tikadilar. Shunday ekan ular kichik biznesni boshlab, keyinchalik olingan foydani qayta sarmoya qiladilar va shu bilan kapital tanqisligi sinovidan omon qoladilar. Masalan, quruq meva va yong`oqlar sotishlari mumkin. Dastlab kooperativ bilan ishlashadi, keyin aytaylik biror mehmonxona ta'minotini olib shartnoma asosida pul qilishadi va undan so`ng foyda bilan qaytib uskuna sotib olishadi. Bu o`shish uchun sekin yo`l bo`lishi mumkin, lekin uzoq muddatda ko`pchilikning murodini hosil qiladi. “*Xayrxona chevari*” kitobida Ruanda va Bosnia ayollari orasidagi tadbirkorlikka ham ma`lumotlarni ko`rishimiz mumkin. Afg`on ayollari biznes boshlash uchun bosib o`tgan yo`lga o`xshashlik yo`lni boshqa millat vakillarida uchratish mushkilligi yoritilgandir”¹⁸.

Afg`oniston kabi joylarga qarab o`rgansangiz bo`ladigan bir narsa shuki, biznesning xayr keltirishdagi qudrati ulkan. Umuman olganda, muqobil variantlar kam bo`lgani bois biznesga tavakkal qilishdan kamroq qo`rqishadi. Ichingizdagi tadbirkorlik da'vati bilan raqobat qiluvchi boshqa ishlar juda kam. Yana Kamila

¹⁸. “فرهنگ مردم” jurnali. Internet sayti: www.afgan.ru

kabi insonlar borki, xalqaro hamjamiyatdagi juda yaxshi haq beradigan ishlarni rad etishmoqda, negaki ular tadbirkorlik kuchiga ishonishadi. Ular, menimcha, tadbirkorlar nafaqat bir oila uchun, balki butun jamiyat uchun qanchalik ahamiyatli ekaniga yaxshi namunadirlar. Bunga Kamila Siddiqiyning “*Xayrxona chevari*” kitobi yaqqol misol bo`la oladi. Afg`on ayolining biznes sohasida ishlab turib, adabiyotga oshnoligi uni yutuqlarini yana ham oshirganini ko`rishimiz mumkin.

Hozirgi davrda Afg`oniston ayollarini dunyo ayollari bilan tenglashayotganligini “ انيس ” [Anis]-Anis, jurnali sahifalarida chop etilgan maqolalar orqali ham ko`rishimiz mumkindir. Ushbu jurnal ham Afg`onistondagi xotin-qizlarning hayoti va faoliyati haqidagi xabarlarining bosilib chiqishi bilan bizning e`tiborimizni tortdi. Bunga misol qilib, maqolada Afg`oniston xotin-qizlar qo`mitasiga yo`llangan tabriklarni ko`rib guvohi bo`lmoqdamiz.

Bugungi kunda Afg`oniston ayollarini dunyo tan olmoqda desak, mubolag`a bo`lmas. Buning isbotini Avstraliya xotin-qizlar qo`mitasi va Germaniya federativ respublikasi xotin-qizlar qo`mitasi Afg`oniston xotin-qizlar milliy qo`mitasiga yo`llangan tabriknomasidan ham ko`rishimiz mumkin.

“Afg`oniston respublikasidagi barcha zahmatkash afg`on ayollarini Afg`oniston xotin-qizlar qo`mitasining tashkil etilishi munosabati bilan sizlarga samimiy va do`stona tabrigimizni yo`llaymiz!

Biz sizlarni o`z maqsadlaringiz sari olg`a intilishingizni qo`llab quvvatlaymiz, sizlar ijtimoiy faollikka, taraqqiyotga, milliy o`zligini anglashga intilgan xalqlardansizlar. Ozodlik erkinlik tinchlik va xotirjamlik barcha sohalarda hamrohingiz bo`lsin!

Afg`on ayollari o`zlarining do`stona va birdamlik harakatlari bilan Avstraliya mamlakati bilan tinchlik aloqalarini o`rnatishga intilayaptilar. Avstraliya sizning davlatingizga nisbatan hech qanday urush harakatlari ochmoqchi emas, balki do`stlik, birdamlik aloqalari tarafdoridir. O`ylaymizki ikki davlat aloqalari bu sohada ham rivojlanadi.”

“Afg`oniston demokratik respublikasi xotin qizlar qo`mitasining tashkil etilishi munosabati bilan Germaniya federativ respublikasi ayollar qo`mitasiga yo`llayotgan eng samimiy va eng qaynoq do`stona tabrigimizni qabul qilgaysizlar!

Germaniya federativ respublikasi xotin-qizlar qo`mitasi sizlarga shuni malum qiladiki, sizning davlatingizdagi ozodlik g`alabalarini tinchlik bilan hal bo`lishiga tilakdoshmiz va xalqaro do`stona davlatlar qatorida sizlar bilan ham hamisha birdamlik va do`stona aloqalar qilishiga tayyormiz.

Bunday iliq do`stona munosabatlarning kuchayishi nafaqat iqtisodiy sohada, balki, adabiyotni rivojlanishida ham muhim ahamiyatga molikdir. Afg`oniston yoshlarini chet davlatlarda bilim egallashga yuborilishi, malakasini oshirishi, kelajakda ziyolilikni oshishiga zamin bo`ladi”¹⁹.

Bu o`rinda shuni aytmoqchimizki, erkaklar va ayollar komil inson huquqlari sohasida bir xil darajaga egalar va ayollar, erkaklar bilan bir qatorda milliy rivojlanish, iqtisodiy, siyosiy, madaniy, ijtimoiy sohalarda o`rin egallashsa, ular turli muvaffaqiyatli natijalarga erishadilar. Yana farzandni dunyoga keltirishda va tinchlikni saqlashda ularning o`rni katta. Hali ham jamiyatda qashshoqlik, insonga xos bo`lmagan ishlar, qavmlar o`rtasida diniy, tabaqaviy mojarolar saqlanib qolgan. Kambag`al ayollar boshqa insonlarga qaraganda ko`p huquqlaridan mahrumdirlar, ko`p narsaga imkoniyatlari yo`q, erkaklar kabi emaslar. Shunday bo`lsada Afg`onistonda 34% ishlardagi ishchilarni ayollar tashkil etadi. Afg`oniston ayollari davlat rivoji va iqtisodiy o`sishida yordam ko`rsatadilar. Ammo o`lim, qarilik, savodsizlik, ularni maoshli ishlarda ishlashlariga va huquqlarini talab qilishlariga to`squinlik qilmoqda. Ular yengilroq ishlarda ishlashni xohlaydilar.

Afg`oniston fanlar akademiyasi tadqiqotchisining o`rinbosari Muhtarama Maliha shunday degandi: “Sotsialistik davlatlardagi ayollar o`zlarini qiynagan

¹⁹. “ انيس ” jurnali. Internet sayti: www.kabulnath.de

ishsizlik zanjirlarini parchalay oldilar, va qat'iylik bilan ijtimoiy, iqtisodiy sohalarda faollik ko'rsatib, kooperativlarda va boshqa og'ir mehnatlarda ham sotsialistik jamiyatda o'zlarining imkoniyatlarini ko'rsata oldilar. Hatto birinchi kosmonavt, ochiq fazoga chiqqan ayol kishi ham sotsialistik jamiyatning ayoli edi. Inqilobdagi g'alaba Afg'oniston ayollari va qizlari uchun ko'p imkoniyatlar eshigini ochadi. Qaysiki, ijodkor va qobiliyatli xotin-qizlar o'z tengdoshlari bilan bir yerda to'planib fikr almashishga ham ega bo'ldilar"²⁰.

Yuqorida tilga olgan gazeta va jurnallardan yana biri "ايراده" [Iroda]-Iroda jurnalidir. Bu jurnal sahifalarida ham, chop etilayotgan maqola, xabarlar, hikoya, qissa va she'riyat turlarida afg'on ayollari ijodlaridan namunalarni ko'rishimiz mumkin.

Jurnalda chop qilinayotgan hikoya va qissalarga nazar tashlar ekanmiz, unda necha asrlar osha tor qafasda jabr-u jafo chekkan, mazluma va zaif deb qaralgan afg'on ayolini ilm - ma'rifatga, zamon bilan hamnafas bo'lib yashashga chaqirish g'oyalari tarannum etilayotganning guvohi bo'lamiz.

"Jurnalda ko'zga ko'ringan hikoyanavislardan Malixa Shaxiyning hikoyalarida ayol obrazini shunday tasvirlaydi. Uning "فرياد از ميان موجها", "To'lqinlardagi faryod" hikoyasida "Daryo mavjlari xuddi ayol faryodiga o'xshaydi... chunki daryo bir ayol bo'lsa, uning mavjlarida katta g'am bordir... zero daryo, dashtlarini, qir adirlarini, tog' toshlarni obod qiladi", ayol ham shunday o'z avlodini tarbiyalab kamolga yetkazadi"²¹.

Shuningdek jurnalda Rahnavard Zaryob, Akrom Usmon, Jalol Nuroni kabi novellistlarning ayol obrazlari ifodalangan hikoyalarini ham mutolaa qilish mumkin.

²⁰ "كابل" [Kobul] jurnali. Kobul-2007. aqrab oyi. B. 6-8.

²¹ "ايراده" jurnali. www.ppazhwak.hozhaber.com

“Biz yuqorida tilga olgan jurnallardagi ayollarga boʻlgan yuksak eʼtibor va imkoniyatlarni “ارمان ملي” -Millat armoni, “هيواد” -Vatan, “ارشاد نسوان” va “هنر” -Hunar kabi gazeta va jurnallarida ham uchratishimiz mumkin.

Hozirgi davr afgʻon adabiyotining yirik vakillaridan biri Xalidullo Xaliliyning qasida, gʻazal va ruboiylari jurnal sahifalarida tez - tez chop qilinib turadi”²².

Xalidullo Xaliliyning ijodida Afgʻon xotin-qizlarining ijtimoiy hayotga jalb etish mavzusi ham keng oʻrin olgandir.

Bunga misol tariqasida Xalidullo Xaliliyning “Afgʻon qiziga xitob” sheʼrida quydagi misralarni keltiradi:

“Ey, Mohigul, bosh egasan tokay sen,

Ey, Sarvinoz, xastadirsan tokay sen.

Ey, jannat qush, ahvolingni soʻrayman,

Tuban tutib, pastdadirsan tokay sen !

Nopok qalblar yuragiga boqmagil,

Botqoq suvning mavjlarida oqmagil.

Kishanlarni parchala – yu dadil boʻl,

Yangi davr bogʻlarida shodon kul !”²³.

Jurnal sahifalaridagi xikoyalarni oʻqir ekanmiz koʻz oʻngimizda ertangi porloq kunga ishonch bilan boqayotgan mehnatsevar afgʻon ayollarining obrazlari namoyon boʻladi. Unda afgʻon ayollarining hozirgi kundagi milliy, ijtimoiy, siyosiy va madaniy ilgʻor gʻoyalari ilgari suriladi.

²². Internet sayti: www.afghanasamai.com

²³. Oʻzbekistonda ijtimoiy fanlar. Toshkent - 1973. B-61.

“زنان افغانستان” jurnalining “Neginahoye andisha” (she`r) rubrikasidagi she`rlarida afg`on shoira ayollarining rango - rang mavzudagi ijodlaridan namunalar berilgandır.

Xumayra Ro`kor, Mohgul Maryam Maxbub, Laylo Saroxat, Laylo Kovyoniy, Saxobiy Beydguł, Otefa Po`rxida va boshqalarning chop qilingan she`rlari fikrimizning dalilidir.

Shu o`rinda, Laylo Akbariyning “Senga, ey ona!” she`ridan misralarni keltirishimiz mumkin:

“Gulgun hayotimning mazmuni-ona,

Ona, borlig`imsan, orzularimsan.

Sen borsan, ishonchim qilur tantana,

Ko`zimning nurisan, tuyg`ularimsan !”²⁴

Darhaqiqat, ayol haqida so`zlar ekanmiz, avvalo, u ona ekanligini unitmasligimiz lozim.

Shuningdek to`plangan she`r va qissalarni ichida mehridaryo onalarga bag`ishlangan misralarni ko`plab uchratishimiz mumkin. Bunga misol tariqasida “Mehribon ona” she`rini keltirishimiz mumkin.

مادر مهربان

تو را جان ای پسر دارش گرانتر

که از مادر نه داری مهربانتر

به خون دیده و با شیری جان

تو را پرورده تا گشت کلانتر

²⁴. Маннанов А.М., Инамходжаев Р. Современная дариязычная литература Афганистана. Ташкент - 1986. стр-25.

روانش را پس افسرده آیام

که²⁵ تا پایت به رفتن شد روانتر

Hikoyanavis Akrom Usmon aytganidek “Ey afg`on ayollari ! Ertangi kunga ishoning, ertaga yolg`on so`zlamaydilar, ertangi bahor onasi sodiq va haqdir”.

Hozirgi afg`on ayollarining obrazlarini jurnalda chop qilinayotgan mavzularga qarab shuni aytishimiz mumkinki, afg`on ayollari o`z ijodlarida zamon bilan hamnafas bo`lib, hayot voqealarini ta`sirchan ifodalab, qahramon, mehnatkash, ziyoli ayol obrazlarini yaratmoqdalar.

Ayol bo`lmasa, adabiyot bo`lmas edi. Adabiyot avvalo ayolga atab, ayol uchun uning ko`nglini olish, dilidagini bilish, ayol degan xilqat ne o`zi? shuni anglash uchun yaralgan. Abdulla Qahhor aytganidek, qushning ham erkagi sayraydi. So`z san'ati avvalboshi er kishining ijodidir, demak, erkakni qiziqtirgan bosh masala adabiyotning asosiy muammosi bo`ladi. Erkakni esa, tabiiyki, eng avvalo ayol qiziqtiradi. Shu bois, adabiyotning asosiy qahramoni, bosh mavzusi- ayoldir.

To`g`ri, so`z san'atida ota-onaga muhabbat, tabiat go`zalligi, halollik, bolalarni sevish, yovlarga nafrat... kabi o`nlab mavzular bor, bularning har biri ming yillardan beri yuzlab xalqlarning so`z san'atida chuqur, har taraflama ishlangan. Ammo baribir, ularning hech biri ayol tasvirichalik mavqe kasb etmaydi. Shu ma'noda, insonshunoslik bo`lmish adabiyot birinchi navbatda ayolshunoslik, ya'ni ayolni o`rganish, inkishof etish ilmidir. Kuzatsak, eng qadimgi asarlar ham ayolga bag`ishlangan, ular konfliktini ayol va unga aloqador narsalar tashkil etadi. Hatto, aytish mumkinki, adabiyot taraqqiyoti ayol mavzusining badiiy tadqiqi, uning teranlasha borishi bilan chambarchas bog`liq.

Har bir yaxshi badiiy asar unda tasvirlangan hayot ustidan, har bir to`laqonli obraz - o`z ob'ekti ustidan chiqarilgan hukmdir, ammo realistik asarning

²⁵.Abdusamadov M. Fors tili. Darslik, Toshkent-2007. B-203

boshqalaridan farqi shuki, u hukm o`rniga kitobxonga tirik insonning o`zini taqdim etadi. Bu inson bilan tanishish, unga baho berish va xulosa chiqarish mumkin. Shu tariqa, adabiyot taraqqiy etgani sari nasihat-didaktika ham, naqlga ilova – “qissadan hissa” tamoyili ham barham topa boradi.²⁶

1.2. Yosh qalamkash Mariyam va Nuriya hikoyalarida ayol

Eslash lozimki, XX asrning 2-yarmida Afg`oniston ayollarining qo`llab quvvatlashi uchun o`sha vaqtning asosiy qonuni ayollar huquqlarini himoya qilgan. Qiz va ayollar uchun ishlar ham topib bergan. Garchi o`sha davrda Afg`onistonda kuchli urush jang paytlari, qiyinchilik bo`lgan bo`lsa-da, Afg`onistonning bir qancha shaharlarida yoshlar va ayollar, qizlar uchun maktab va universitetlar eshiklari ochiq edi. Radio va TV faol ishlardi. Gazetalarda ayollarning haq-huquqlari, ularni turli davlat lavozimlarda, vazirliklarda va turli ijrochi vazifalarida ishlashlari haqida xabarlar yozilar edi.

2001-yil 2-martda xalqaro ayollar bayrami munosabati bilan anjuman saroyida bayram tashkil etildi va naqqoshlik, kashta tikish, afg`on kiyimlarini tikish ko`rgazmasi ham anjuman saroyida tashkil etildi. Shuningdek, afg`onistonlik o`smirlar orasida she`rxonlik musobaqasi ham o`tkazildi, bayram yakunida 15 nafar afg`onistonlik ayollar taqdirlandilar.²⁷

²⁶. Internet sayti: www.ziyonet.uz

²⁷. “زنن افغانستان” jurnali. Kobul-2002. 2-son. B-13.

Bunday tahlikali vaziyatlarga qaramasdan faoliyat olib borayotgan Afg`on ayollarining o`rni beqiyos ekanligini ta`kidlab o`tmoqchimiz. Kobul shahrida mezon oyining o`n yettinchi sanasida Kobul universitetida o`quvchilar va talabalar o`rtasida bo`lib o`tgan ikkinchi festivalning davomi sifatida shaharda *“til va adabiyot o`qituvchisi”* nomli bayram o`tkazildi. Unda ziyoli ayollar o`zlarining olib borayotgan ishlari xususida suhbatlashdilar.

Kobul universiteti dotsenti ustod *Hanifa* masul o`qituvchilar va o`quvchi talabalar orasida ayollarning o`rni xususida nutq so`zlab dedi: *“Bugungi kunda jamiyatimizda ayollarning o`rni beqiyosdir, ular har sohada faol, o`zlarining bilim va malakalarini o`z ishlarida ko`rsatmoqdalar.”* Bundan tashqari, ayollarni nafaqat ijtimoiy, iqtisodiy sohalarda, balki maxsus sohalarda ishlay olishlarini ham guvohi bo`lyapmiz.²⁸

Afg`onistondagi inqilob g`alaba qilganidan keyin ta`lim muassasalarida ham o`zgarishlar ro`y berdi. Zero yosh avlod o`qishga, ilm olishga ko`proq haqlilar va ular bunga hammadan ham ko`ra ko`proq intiladilar. Bunga misol sifatida yosh qizlarning ilmiy hamda ijtimoiy ishlarda to`g`ridan-tog`ri qatnashishlari va ayollarning o`z istedodlarini turli sohalarda namoyon etishlarini keltirishimiz mumkin.

Misol tariqasida Afg`oniston maktablarining birida Mariyam ismli qizaloqning *“دهقان شهيد”* *“Shahid dehqon”* nomli kichik hikoyasi bilan tanlovda ishtirok etib, birinchi o`rinni qo`lga kiritganining o`ziyoq yoshlarning bilimga adabiyotga nechog`lik chanqoq ekanliklarini ko`rishimiz mumkindir. Bu hikoya zulimkor xon tomonidan zo`rlilik bilan tortib olingan jufti halolini qutqargan qahramon dehqon haqida yozilgan. Xon fitna uyushtirib dehqonni o`ldiradi. Biroq bu qolgan dehqonlarning o`z jonlarini saqlash maqsadida, birlashishlariga sabab bo`ladi. Maryam o`zining bu hikoyasida ozodlik mavzusiga ahamiyat berib, unda

²⁸ *“زنان افغانستان”* jurnali. Kobul-2002. 2-son. B-18.

hikoyanavislikning asoslarini belgilashga erishgan. Uning erishgan muvaffaqiyatlari boshqa afg`on yosh qizlariga ham ibrat bo`la olmoqda.²⁹

Yosh adibaning yozgan hikoyasi o`zining soddaligi bilan tilidagi jo`shqinligi bilan e`tiborni jalb etadi. Hikoyada biroz bolalar uchun xos bo`lgan elementar holatlar ham mavjud bo`lib, buni biz kamchilik deb ayta olmaymiz.

Qahramonlarning ishtiroki va voqealar rovoji ham o`quvchi uchun mushkullik tug`dirmaydi, lekin undagi tub mohiyat oddiygina qishloq qizining xonga shunchaki hadya qilib yuborilyotganida va uning taqdiriga hatto otanasning o`jizligidir.

Hikoyada qahramonlar harakati shiddatkor va jasoratga molik tarzda tasvirlanadi. Hikoya markazida jabrdiyda qiz timsoli turadi. Uning o`zining qaylig`i bor. Dehqon yigit hayotning adolatsizligiga chiday olmaydi. Bor imkonini kuchga soladi. Albatta do`stlari ham qarab turmaydi.

Hikoya personajlarining barchasi shu bosh obrazni hayot mashaqqatidan olib chiqish va uning farovonligini ta`minlash uchun harakat qilishadi.

Hikoyada yana bir holat - yuqori tabaqa vakillari uchun inson qadri umuman qimmatga ega emasligi hamda ayol-qizlar taqdiri oyoq osti qilinishi, shu bilan bir qatorda ular cho`ri kanizakdan boshqasiga yaramasligi oydin ko`rsatiladi. Lekin quyi tabaqa vakillari uchun ayol-qizni asrash, o`z juftiga bo`lgan sof sevgini qadirlash har narsadan ustun ekanligi yaqqol namoyon bo`ladi. O`rtadagi bunday katta tafovutli fikrlar albatta jamiyat notinchligini olib keladi.

Yosh qalamkash qizcha Maryamning yozgan hikoyasi qahramonlarda va voqealarda to`qima holat kuchli bo`lsa-da, uning bosh obrazi-jabrdiyda qiz murakkab vaziyatdagi afg`on qiz-ayollarining real talqinidir. Hayot mashaqqatlaridan hali qaddi qotib ulgurmagan yosh qiz qalbiga shunday fikrlarni solmoqda.

²⁹. "زنان افغانستان" jurnali. Kobul-2002. 2-son. B.29-32-33.

Hikoya avvalida xonga soliq to`lay olmagan uchun xon zo`rluk bilan olib ketgan qizning otasi ham qishloqdoshlaridan najot kutadi. Uni qaytarishini so`rab borgan dehqonlar xon saroyi darvozasi oldida turli dashnomli so`zlar bilan xonga murojaat qilishadi, ba`zilari o`tinib yolvorishadi. Shunda dehqonlardan biri shunday deydi:

من هم دختر جوان دارم! تو هم دختر جوان داری! اگر جلو این بی ناموسی ها گرفته نشود بلا های بدتر از این بر سر ما خواهد آمد.

“Mening ham yosh qizim bor! Sening yosh qizing bor! Agar shu benomusliklarni to`xtatmasak, boshimizga bundan ham yomonroq balolar kelajak!”

Darhaqiqat, bugungi kun ertasi bo`lgan qiz-ayollarni xo`rlab bo`lmaydi, ularni parvarishlagan jamiyat albatta bardavom bo`ladi!

Hikoya yakuni afsuski yaxshilik bilan tugamaydi, yosh qizning qaylig`i qabri yonida ko`z yosh to`kayotgani gavdalanadi. Oxir-oqibat ham ayol qalbi yana sinadi, uning pokiza mehr-muhabbati barbod bo`ladi. Yosh adiba bu siymo orqali butun jamiyatga ishora qiladi va qiz-ayollarni avaylashga undaydi.

“Bunday yoshlardan yana biri Adabiyot kursida tahsil olayotgan Nuriya haqida ham juda ko`plab iliq fikrlar bildirish mumkin. Adabiyotga qiziqishi sababli maktab chog`idayoq bir qancha hikoyalar yozgan. Uning “همسایه مادر” “Qo`shni ona” va “کودک و مادر” “Ona va bola” hikoyalari gazetalarda bosilib chiqqan va ko`rik tanlovlarda qatnashib yuqori o`rinlarni egallagandir”.³⁰

Hikoyalar mavzusidan ko`rinib turibdiki, yana o`sha benihoya yangrovchi “Ona” timsolidir.

Hikoya biroz qisqa bo`lishiga qaramay oson o`qiladi va bolalar uchun juda sodda tushunish imkonini beradi. Hikoya markazini “Mehribon Ona” siymosi harakatga keltiradi. Hikoyada bor yo`gi uch personaj qatnashadi, undagi nutq ham

³⁰ “زنان افغانستان” jurnali. Kobul-2002. 2-son. B-31.

o`ta samimiy va sodda. Hikoyani o`qigan har bir kitobxon qalbida onaga mehr va uni e`zozlash ruhi yanada jo`sh uradi. Chunki muallif quyidagi go`zal va dilga yaqin ajoyib nutqni hikoyaning jajji qahramoni tilidan keltirib o`tadi:

کودک با عجله و خوشی به خانه همسایه اش دوید و به دوست کوچکش گفت: من بالاخره یافتم که کی ما را بزرگ میکند و پرورش میدهد.

او مادرم بود...

... مادر بزرگترین مظهر آفرینش است که ما را با شیرۀ جان پرورش داده و بزرگ ساخته. او را بیشتر از همه گلها و شیرینی ها دوست دارم.

“ *Bolakay shoshilib va xursand bo`lib qo`shni o`rtog`ining oldiga yugurdi va unga dedi: “Nihoyat, men kim bizni katta qilayotgani va o`stirayotganini topdim.*

U Onamdir...!

Onalar bizni jon suti bilan parvarish qilgan va katta qilgan. Uni hamma gullar va shirinliklardan ham qattiqroq yaxshi ko`raman. Barcha eng yaxshi so`zlarimni unga aytaman!”

Ushbu misralarni o`qiyotgan kitobxon labida biroz jilmayish paydo bo`ladi, shu bilan birga qalbida onaga mehr uyg`onadi.

Nuriya bu hikoyasiga Ona siymosini tanlab, xoh katta yosh kitobxon bo`lsin, xoh kichik yosh kitobxon bo`lsin, barchaga Onalarni e`zozlash, bor mehr-muhabbatni ularga berish zarur ekanligini yoritib beradi.³¹

Bu fikrlarning tasdig`i sifatida qizlar o`rtasida bo`lib o`tgan mushoira bayramida bir qancha xotin-qizlar maktablari o`quvchilari, ustozlar tayyorlash maktablari vakillari va bir nechta Afg`oniston Respublikasi yozuvchilar uyushmasining a`zolari ham ishtirok etib, qizlar mahoratlarini sinovdan o`tkazdilar.

³¹ “Zanan afganistan” jurnali. Kobul-2002. 2-son. B.30-39.

“Robiya-ye Balxiy” nomli litseydan Obida Rang va Saymin G`azal, “Oryono” litseyidan Nuriya, “Maryam” nomli litseydan Nafisa, Otifa, Maliha, Rano, Balqis, “Respublika kasb hunar litseyi”dan Shiymo, Sayman, Foruqa, Oisha, Gulpari, Oisha, “Daroniy litseyi”dan Shafiqa Ozod Mansh, Marziya Kuhestoniy, “Zarg`una litseyi”dan Zarifa Sherziy, Siymo Mahtot, Safiya Sadiqiy, “Suriya litseyi”dan Roziya, Safiya, Hafiza, “Omina Fadaviy litseyi”dan Moryo, Zakiyya, Habiba, Parvona, Ajiba, Mumina, Safiya va boshqa ko`plab ayollar bemalol she`rlar aytib o`z istedodlarini namoyish qildilar. Bu orada turli yangi istedodlar ham yuzaga chiqdilar agar bu yoshlarga e`tibor berilib ularni qo`llab quvvatlasalar tasavvur qiling kelajakda qanchadan qancha Robiya, Jole, Furug` kabi shoirlar yetishib chiqadi.³²

“زنان افغانستان” jurnalining “Adabiyot va duxtaron” (Adabiyot va qizlar) nomli maqolasida yosh qalamkash ayollarning ijodidan namunalar keltirishimiz mumkin.

Ushbu jurnalda yosh ijodkor ayollarga keng imkoniyatlar yaratib berilgan. Buning isbotini nashr bo`lgan hikoya, she`r va xabarlarga nazar tashlasak, yosh qalamkashlar afg`on xotin - qizlarining bugungi va ertangi kuni haqida katta umidlar bilan qalam tebratayotganliklariga guvoh bo`lamiz.

Nashr qilingan hikoyalarda ayol obrazlari tili sodda, ravon xalq tilida berilganligi uchun ham o`quvchilarda katta qiziqish uyg`otadi. Hikoyalardagi ayol obrazi afg`on ayollariga xos xislatlar jo`shqin tasvirlanadi.

³². “زنان افغانستان” jurnali. Kobul-2002. 2-son. B-19.

II BOB

HOZIRGI DARIYZABON ADABIYOTIDA AYOLLAR OBRAZI

Ayol talqini butun jahon adabiyotining bosh va barhayot mavzusi bo`lib kelgan. Uning obrazi adabiyotning har bir janri, she`riyatda ham, nasrda ham o`z aksini topgan.

Zamonaviy dariyzabon adabiyotining ham ancha-muncha qismini ayol obrazi to`ldirib kelgan va bu davom etmoqda desak xato bo`lmaydi. Buni biz bugungi dariy tilida yaratilgan adabiyot namunalarida, she`rlarda, hikoyalarda, qissalarda va romanlarda kuzatishimiz tabiiy hol. Bu uning boshqa xalqlar adabiyotidan kam emasligini ko`rsatadi.

Biz bu bitiruv malakaviy ishimiz uchun, hikoya tahlilini tanlab oldik. Ayol obrazini gavdalantirgan hozirgi dariyzabon adabiyotining yorqin namoyondalaridan bo`lgan, o`zining hikoyalarida soddalikni tanlasa ham, mavzuda jiddiylıkdan uzoqlashmaydigan va dolzarblikni saqlab turuvchi hikoyanavis Rahnavard Zaryob va uning ayoli bo`lmish, bir hikoya ko`lamiga roman mavzusini sig`dira oladigan so`z ustasi va jamiyatning ham yaxshi ham yomon jihatlarini o`z asarlarida kitobxonga ko`zgu qila oladigan Spujmay Zaryob hokoyalarini tahlil etishga qaror qildik.

Adabiy tahlilimizning maqsadi, hikoyalardagi ayol, ona, singil va yor siymolarini to`g`ri ajratib olishga va ular atrofida shakllantirilgan obrazlar bilan munosabatini ko`rsatishga urinish bo`ldi.

2.1. Rahnavard Zaryob hikoyalarida oilaviy munosabatlar va unda ayolning o`rni masalasi

Rahnavard Zaryob ijodini asosan hikoya janri tashkil etadi desak xato bo`lmaydi. Uning hikoya janrining bor imkoniyatlaridan foydalanib, personajlarni yaratish mahorati va ular nutqini shakllantirishi maqtovga loyiqdir³³.

Biz tahlil uchun Rahnavard Zaryobning “پاھا” “Oyoqlar” hikoyasini tanlab oldik.

Hikoyadagi bosh obraz - mazlum ayol, Ona timsoli. Uning yagona maqsadi qolgan, u ham bo`lsa farzandini avaylash, zolim otadan qutqarish. Ona siymosi artofini o`rab turgan obrazlar: zolim er, onaning dilbandi va loqayd xalq. Muallif mana shular bilangina kifoyalanib, Ona xarakterini juda osonlik bilan ochib bergan.

Ayol har tong erta uyg`onadi, hayot uni shuncha mashaqqatlari bilan ezgan bo`lsa ham noshukrlik qilmaydi, uy yumushlarini, o`zining ayollik vazifasini bajaradi va aslo undan tonmaydi. Bu uning eriga vafosini, sadoqatini ko`rsatadi.

Bundan so`ng, farzandini bag`riga oladi-da, tirikchilik ilinjiga tushadi. Har doimgi o`rniga keladi va xalqdan yordam kutib nola cheka boshlaydi. Shunda ham

³³ Adibning hayoti va faoliyati haqidagi to`liq ma`lumotni BMIning ilova qismida keltirdik.

o`z manfaatini ko`zlamay jigargo`shasiga nasiba tilaydi. Bu uning Onalik mehrining qanchalik yuqori ekanligidan dololat berib turadi.

Kun o`tib uning sabr kosasi to`ladi, nihoyat erga dardini sochdi va Xudodan ovozi borich o`tindi. Lekin uni hech kim eshitmadi! Ko`rgani bor yo`g`i o`z joniga jabr bo`ldi. Dilbandi yolg`iz qoldi, endi uning onasini so`rab yeg`lashini ham faqat Xudo eshitadi.

Hikoyada g`amginlik ustun. Haqiqatda ham Afg`on ayolining jasorati, sabri va onalik burchi bundan ortiq tasvirlanmaydi. Achinarli tomoni shundaki, hikoyadagi asl Afg`on ayolining shuncha zaxmati evaziga hech narsaga erisha olmaganidir.³⁴

Adib o`z hikoyasida Afg`onistonning ijtimoiy hayotidagi vaziyati juda ayanchli ekanligini mana shu birgina sodda va ravon hikoyada aks ettirgan. Vaholanki, unda ayollar, onalar qadri yuqori bo`lmas ekan, xalq hayoti ham farovonlashmay qolaveradi.

Rahnavard Zaryob ijodida bu kabi obrazli hikoyalar talaygina. Masalan, uning “بى گىل بى برگ” “Begul va be barg” hikoyasida yosh navnihol qiz obrazi talqin etiladi. Uning bu hikoyasi bizga adabiyotimizning yorqin vakili Abdulla Qahhorning “Hur qiz” qissasini yodimizga soladi. Asarda «زرمينه» “Zarmina” ismli qiz hayoti gavalantiriladi. Uning sof va yashirin sevgisi e`tiborsiz qolmoqda, hatto uning ota-onasi ham buni tan olishga qodir emaslar. Uning sevgisini asray olmasligi, doim ko`zlari yoshlanmasa-da, qalbi doimo yoshga to`la ekanligi sezilib turadi.³⁵

Adib hikoyada ta`sirchan holatlarni uning sevgan yigiti tilidan hikoya qiladi, yana shu bilan birga uning bu ayanchi holati dialoglarda o`z ifodasini topadi.

Hikoyaning voqeasi rivoji bahor fasli - muhabbatning tug`ilish vaqtdan boshlanib, kuz - ikki yosh sevgisining poymol bo`lishi bilan yakun topadi. Hikoyanavis asarni qahramonlar soni bilan bezab yubormaydi. Epizodik obrazlar boshqa hikoyalari singari bosh obrazlar Zarmina va uning sevgani atrofida yuzaga

³⁴ Hikoyaning to`liq varianti ilovada keltirilgan.

³⁵ “بى گىل بى برگ” “Begul va be barg” hikoyasi. Internet sayti: www.afghanasamai.com

keladi. Chunki ularning bosh vazifasi bosh qahramon, ma'suma va pok sevgi egasi bo'lgan qizning dil izhorlarini aks ettirishga vosita bo'ladi.

Hattoki hikoyadagi peyzaj, tabiat tasviri ham Zarminaning qalb tug'yonlarini yuzaga olib chiqayotgandek aks ettiriladi. Shu bilan birga yoz jaziramasiining tig'i Zarminaning qalb otashiga, kuz barglarning to'kilishi - Zarminaning qalb oynasining chilparchin bo'lishini ifodalaydi. Umuman olganda Zarminaning tasviri doimo tabiat vositasida berilishi bu uning yuksak hikoyanavislik mahoratidan dalolat berib turadi.

Adib bu hikoyasi bilan jamiyatdagi befarqlik, eng yomoni yoshlarning qalbi va diydasi doimo shu tahlikali vaziyat qurboni bo'layotganini aytib o'tadi. Bundan tashqari, u yoshlarga qarata har qanday holatda ham o'zini ojiz sezmaslik lozimligini, hech qachon o'z yuragini boshqalar tomonidan toptalishiga yo'l qo'ymaslik kerakligini aytib, xitob qiladi.

Asar muallifi Zarmina misolida uning sof sevgisini va toza qalbini, ijobiy fazilatlarini ko'rsatib o'tish bilan bir qatorda, hayot sinovlariga dosh bera olmay o'z joniga qasd qilishini unchalik oqlamaydi va bularning barchasini afg'on qizlariga o'rnak qilib ko'rsatishga urinadi. Ba'zan inson o'z sevgisini qadirlash, asrash va ota-ona rizoligi o'rtasida qolishini ham shu Zarmina misolida ko'rsatgan.

Asar xulosasini shunday baholash mumkin, Zarmina, asar yangi ekilgan navniholga tenglashtirilsa, bu niholning parvarishi, e'tibordan qolgani va uning na barg va na gul chiqargani hikoyaning nomiga muhrlab qo'yilgan.

Rahnavard Zaryobning asarlarida qahramonlar doimo o'zining soddaligi va ularning aksariyati xalq hayotidan olingan insonlar bo'lishi, uni boshqa adiblardan ajratib turadi.

Adibning ijodida biz Ayol mavzusini tanladik. Uning Ona timsoliga, navnihol qiz obraziga bo'lgan munosabatini ko'rib o'tdik.

Bundan tashqari, uning hikoyalarini hayot so'qmoqlarida mashaqqat chekkan rafiqat timsoli ham tashkil etadi. Shu o'rinda uning «مزدور» "Yollanma",

“Yollangan ishchi” hikoyasida biz soʻz yuritayotgan timsol bosh obraz vazifasini oʻz zimmasiga olgan.³⁶

Hikoyada “خاور” va “عباس” Xovar va Abbos timsollari yetakchilik qiladi. Ular qurgan oilaning barbod boʻlishi aks ettiriladi. Abbos bu asarda bosh obraz - hayotdan jabr chekayotgan rafiqa Xovarga koʻmakchi timsol boʻlib shakllantirilgan.

Asarning bosh gʻoyasi Xovarning zulmkor ayol, qaynonasi izmida qolganini aks ettirishdan iborat. Bu oʻrinda ikkinchi ayol obrazi - qaynona Xovarga qarshi qoʻyilgan. Lekin adib Abbosning onasini qoralab koʻrsatmaydi. Aksincha uni ham hayot mashaqqatlari shu koʻyga solganiga ishora tariqasida bu obrazni yaratgan.

Hali yuragida qaynoq va iliq tuygʻular mavj urib turgan Xovar eri Abbos bilan yolgʻiz zulmkor qaynona qurshovida, qafasdagi qushdek ojiz va notavon qoladi. Unga qarshi yaratilgan obrazning harakatga kelishida adib yana tabiat tasviridan foydalangan. Masalan, qaynonaning zulmkor vaziyatlarida tabiat tasviri qalin bulutli, momaqaldiroq aralash yomgʻirli holatni tanlaydi. Bunga aks qilib, ikki yosh qalblarning sirlashish bir-biriga koʻmak berish vaqtidagi vaziyatda tabiatning ochiq va quyoshli paytini olib kiradi.

Hikoya mavzusini tanlashda adib yana mohirona usulni qoʻllaydi va kitobxonni qiziqtirib qoʻyadi. “Yollangan ishchi” bu yerda Xovar obrazi. Oiladagi uning mavqeyi hatto undan ham past ahvolda. Aslini olib qaraganda u oilaning asosi hisoblansa-da, unga boʻlgan munosabat juda ayanchli ahvoldadir. Uning vazifalari shu darajada belgilab tashlanganki, xuddi uni yoʻllab olib kelishgan va boshqa maqsad boʻlishi ham mumkin emasdek.

Qaynonaning zulmi oxir oqibat oʻgʻlining - Abbosning kulfati bilan yakun topadi. Shunda ham u Xovarni aybdor biladi, endi esa bu Xovarga juda ogʻirlik qilib uning ham umriga zavol boʻladi.

Asar misolida adib jamiyatga murojaat qilib, oila mustahkamligining poydevori boʻlgan turmush koʻmakdoshi ayolni asrash, avaylash va xuddi nozik niholdek parvarishlash oʻta muhim vazifa ekanligini eslatib, uqtirib oʻtadi.

³⁶ “مزدور” “Yollanma” hikoyasi. Internet sayti: www.afghanasamai.com

Shu fikrlarning xulosasi sifatida, Adibning “BBC” va “KobulNath” muxbirlariga bergan intervyusini eslash lozim. Unda muxbirning: “Nega hikoyalaringizning asosiy qismini jabrdiyda ayollar egallagan?”,- degan savoliga quyidagi javobni olish mumkin: “Men ularni tasvirlashda o`z Onamni, ayolimni, singlimni ko`raman. Albatta, bu holat mening ham hayot tarzimga qattiq ta`sir etgan”. Mana shu adib ijodida ayollar timsolining jonli va faol ekanini ochiq-oydin ko`rsatib o`tadi.³⁷

Darhaqiqat, ayolni e`zozlash – insoniyatni asrashdir. Rahnavard Zaryob ijodi doimo shu g`oyani shior qilib olgan, bu doimo yangrab kelmoqda.

2.2. Spujmay Zaryob hikoyalarida ayol qismatining badiiy talqini

Taniqli afg`on adibasi Spujmay Zaryob doim vatan sog`inchini kuylab yozadi. Uning ijodida vatanparvarlik mavzusi yetakchilik qiladi. Chunki uning hayotida, Vatandan uzoqlik doimo yechilmas muammo sanalib keladi.

Spujmay Zaryob hikoyalarida obrazlar jilosi nisbatan Rahnavard Zaryob ijodiga o`xshab ketsa-da, farqli tomonlar talaygina. Rahnavard Zaryob ijodida qahramon ruhiy holati yuqori o`rin egallasa, Spujmay Zaryob ijodida esa ko`pincha jamiyatning ruhiyati aks etadi.

Spujmay Zaryob hikoyalarida davr va qarhamon yetakchi mavzu. Shundan biz tahlilga olgan Ayol siymosi ham o`zgacha namoyondir. Uning hikoyalarida Ayol obrazi Rahnavard Zaryob hikoyalariga qaraganada ancha “zamonaviy” ko`rinishda namoyon bo`ladi. Balki uning o`z Vatanining jamiyatida bo`layotgan jarayonlarni chetdan turib kuzatayotgani sababdir.

³⁷.Internet sayti: www.farsi.ru

Hikoya janri Spujmay Zaryob ijodida yetakchi janrdir. Adiba hikoya mavzularida “hikoya ichida hikoya” usulini qo`llash bilan jamiyatning e`tiborga loyiq tomonlariga o`rnak holatlarni, vaziyatlarni ochib ko`rsata beradi. Albatta, bunda u ayollarning vazifasiga katta urg`u beradi va uni bo`rttirib ko`rsatadi.

Spujmay Zaryob ijodida bir qancha hikoyalar jahon e`tiboriga tushgan desak, xato bo`lmaydi. Bular ichida “خروس من” - “Mening xo`rozim”, “دشت قابيل” - “Qobil dashti”, “تذکره” - “Tazkira”, “ترانهء استقلال” - “Istiqlol taronasi” kabilarni keltirib o`tish mumkin.

Spujmay Zaryob ijodini qisqa tahlil etish maqsadida “خروس من” - “Mening xo`rozim” hikoyasiga murojat qildik.³⁸

“Mening xo`rozim” hikoyasidagi voqealar jarayoni ona qizchasini maktabdan olib kelishi bilan boshlanadi. Asardagi voqea rivojiga qizaloqning rasm darsida chizgan “xo`roz” tasviri turtki bo`ladi. Bu narsda onaning yodiga hayotidagi mashaqqatli damlarni esga soladi. Mana shu o`rinda mohirlik bilan muallif “hikoya ichida hikoya” usuliga o`tadi va hikoyada onaning tilidan jamiyatning e`tiborga zor qatlamiga tegishli holatni aks ettiruvchi hikoya boshlanadi. Shuni ta`kidlash lozimki, bugungi afg`on jamiyatini birgina hikoyada aks ettirishda adiba ayol obrazini olgan va uni o`z qizalog`iga so`zlaydi. O`quvchidan shuni tafakkur qilish talab etiladiki, jamiyatning faol qatlami ayol bo`lishi lozim, deydi u bu bilan.

Endi onaning nega o`g`liga emas, qiziga bunday holatlarni aytayotgani va nima uchun aynan qiz obrazi olib kirilgani e`tiborga loyiq. Chunki kelajak egasi ham ziyrak bo`lib, jamiyat hayotiga befarq bo`lishi mumkin emas.

Spujmay Zaryob bu hikoyasida afg`on ayolining har narsaga tayyor turmog`i lozim ekanligini va kelajak farzandlarini ham shu ruhda tarbiya etmog`i kerakligini uqtirib o`tadi. Hikoyaning dolzarbligi nafaqat Afg`onistonning tahlikali vaziyati

³⁸. “خروس من” - “Mening xo`rozim” hikoyasi. Internet sayti: www.pajhwok.com

uchun, balki uning butun olam mamlakatlariga ham tegishli deb ayta olamiz. Chunki fikrning dalili sifatida asarning fransuz, nemis tillariga tarjimasini ham bejiz emasdir.³⁹

Shuningdek Spujmay Zaryob doston syujetlarini hozirda ayol bo`lib, ona bo`lgan, qiyinchiliklardan va tahqirlardan qiynalgan, o`sha kichkina aqlini tanigan qizcha nigohidan o`tkazib aniq ravishda hikoya qiladi. Bu shundan nishonaki, yozuvchi o`z jamiyatidagi ijtimoiy hayot sharoitlarini o`z mavzusida juda qattiq tanqid qilgan. Shunday tanqidlar bo`lishiga qaramay Spujmay Zaryob bu dostonda boshqa odamlar qiyofasida qora va oq tasvirlarni ko`rsatmaydi. “Mening xo`rozim” hikoyasida bir ruhoniylar erkak tasvirlangan bo`lib, u bir juda hurmatli xonim bilan uchrashadi va bu xonimning gaplari uning qulog`iga yoqadi. Bu tasvir orqasida yana bir erkakni qizning otasi ro`lida ham ko`ramiz, u o`z qizini yaratuvchanlikka undaydi va uni qo`llab quvvatlaydi. Bu ikki erkak boyagi diniy peshvoning tamoman aksidirlar.

Balki, Spujmay Zaryob islomiy jamiyatdagi erkaklarni namuna sifatida tasvirlaganligining sababi uning o`zi ana shunday erkaklar bilan hayotda yuzma-yuz kelganligidadir. Bu doston naqadar ayanchli, afsusli tarzda nihoyasiga yetsa ham uni eshitmaslik mumkin emas. Ota va ruhoniylar erkak shubhasiz o`sha jamiyatni yaxshilik tomonga buradigan va umid manbayi bo`lgan insonlardandirlar. Yozuvchi o`z navbatida bu obrazlar orqali kelajakda jamiyatni rivojlantiradigan erkaklarga ishora qilmoqda.

Eslatma ” خروس من ” “Mening xo`rozim” “Asmoyi” jurnali tomonidan nemis tiliga tarjima qilindi va nashr etildi. Spujmay Zaryob xonimning dostonlari boshqa davlatlarda ham nemis tilida qiziqishlarga sabab bo`lmoqda. Spujmay Zaryob xonimning boshqa ba`zi asarlari ham nemis tiliga tarjima qilingan va xorijiy davlatlarda ham muallifga adabiyot sohasida juda katta yutuqlar keltirdi.

³⁹. Hikoyaga Asmoyi jurnali tomonidan yozilgan taqriz ilovada to`liq ko`rsatiladi.

Spujmay Zaryob ijodida Ayol siymosi nisbatan o`zgacha namoyon bo`ladi. Adiba asarlarida ona va qiz munosabatlariga urg`u beradi. Sabab shundaki, ularni jamiyatning ogoh vakillari sifatida olib chiqadi.

Spujmay Zayobning yana bir asarida biz izlagan ayol siymosini topishimiz mumkin. Uning o`sha “ترانهء استقلال” - “Istiqlol taronasi” hikoyasida vatanparvar ayol obrazi talqin etiladi.⁴⁰

Qiziq tomoni shuki, Spujmay Zayobning hikoyalari nima uchundir bolalar hayoti bilan bog`liq bo`ladi. Yana aynan biz yuqorida ko`rgan kabi holatni bu hikoyada ham uchratamiz. Asarda voqea rivojini maktab sharoiti boshlab beradi.

Qizchanning mehnat ustozidan qo`rqib onasiga biror narsa yasab berishini iltimos qilishi hikoyaning asosiy nuqtasini qo`zg`aydi. Onaning qalbi singan. Uning yoshlik davrida hovlisida bo`lgan quduq bilan bog`liq hikoyani esiga soladi. U qiziga “quduq va suvchi ” yasash jarayonida barcha o`tgan ayanchli holatlarni esga oladi va bularning barchasini qizalog`iga o`rnak qiladi. Adiba hikoylarda tabiat jilosi, peyzaj tasvirlaridan qochadi. Aksincha o`quvchi e`tiborini faqat markaziy holatga tortishga harakat qiladi.

Ko`rib turganimizdek, Rahnavard Zaryob va Spujmay(Rauf) Zaryoblarning ijodlarida, ona, ayol, yor, singil obrazlari yuksak mahorat bilan ochib berilgandir.

Bu ikki ijodkorning yozgan asarlarini o`qir ekanmiz ularning asarlari o`xshash hamda bir-biridan farq qiluvchi jihatlari bor ekanligiga guvohi bo`ldik desak mubolag`a bo`lmas.

⁴⁰. “ترانهء استقلال” - “Istiqlol taronasi” hikoyasi. Internet sayti: www.kabulnath.de

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytmqchimizki, kichkina tadqiqotimiz natijasida Afg'onistonning zamonaviy dariy tili prozasi hamda she'riyatining rivoj topib borayotganligining guvohi bo'ldik.

Afg'onistonning dariyzabon badiiy nasriy turi boy mumtoz merosga ega, hozirgi paytgacha, u o'ziga yaqin qo'shni xalqlarning madaniyati ta'sirida boyib kelgan va kelmoqda. O'z navbatida adabiyotiga ham ta'sir ko'rsatmoqda.

Afg'oniston mustaqillikka erishgandan so'ng, badiiy adabiyotni rivojlantirish masalasi ko'ndalang qo'yildi. Mustaqillikning birinchi o'n yilida millatlararo aloqalarning mustahkamlanishi va boshqa adabiyotlarning ta'siri vositasida milliy adabiyot rivojlanishi jarayoniga sezilarli turtki berildi. O'zga xalqlarning tarjima etilgan asarlari bilan tanishish afg'on yozuvchilariga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Jahon adabiyoti so'z ustalarining tajribasiga tayanib va o'z adabiyotlarining traditsiyalariga ijodiy yondashib, Afg'onistonning dariyzabon yozuvchilari eski badiiy shakillardan yangilariga o'tdilar, ya'ni mumtoz turlar o'rnini zamonaviy yo'nalishlar egalladi.

Afg`on yozuvchilari ham XX asrning 30-yillaridan boshlab hikoya, qissa va roman kabi turlarda ijod qila boshladilar.

Hozirgi dariyzabon nasrini tadqiq etar ekanmiz, uning sifat darajasi oshib borgani ko`zga tashlanadi. yozuvchilarning muammolarni tahlil qilish chuqurlashganini, shaxsning o`rab turgan muhit bilan o`zaro aloqasi ko`rsatila boshlanganini, hamda asosiy qarama-qarshi sinflararo munosabatlar tasvirlanganini kuzatamiz.

Endilikda afg`on yozuvchilari inson qiyofasini har tomonlama, chuqur va yorqin tasvirlashga harakat qilib, psixologik uslubga ham murojaat etdilar, ular, ilgari kuzatilmagan holatlar-ichki hissiyotlarni, o`y-xayollarni berishga va manzaralarni ko`rsatishga urina boshladilar.

Afg`on adabiyotida zamonaviy nasriy turlar ko`lami juda keng. Ammo ularning ichida hikoyachilik boshqalariga nisabtan kengroq rivoj topmoqda. Shuning uchun hikoya xalq hayotini osonlik bilan aks ettirgani sabab ham aholi o`rtasida tez yoyiladi, ular hayotini aniq ochib beradi. Barchamizga ma`lumki, adabiyotning bosh obrazi bu - inson. Ayol uning yaratuvchisidir. Shularni inobatga olgan holda biz aynan zamonaviy dariyzabon adabiyotida ayol obrazini tanladik va uning o`rganilish jarayonini muhim deb topdik. Jamiyatning qay darajada taraqqiy etishi, insonlarning farovonligining barchasi ayol siymosida namoyon bo`ladi.

Aynan dariyzabon adabiyotida bu mavzu to`la tahlil qilib o`rganilmagan. Shu sababdan ham bu mavzuni chuqurroq tahlil qilib o`rganishga qaror qildik.

Bitiruv malakaviy ishimiz kirish, ikki bob va ikki bo`lim, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat. Kirish qismida bitiruv malakaviy ishimiz to`g`risida umumiy ma`lumotlar keltirilgan.

Birinchi bobda Afg`oniston ayollarining adabiyot va matbuot sohasiga ham nechog`lik qiziqishlari kuchli ekanligini gazeta va jurnallarda nashr etilayotgan she`r, qissa, hikoyalarni tahlil qilish orqali ochib berishga harakat qildik. Buning

uchun biz “ارمان”, “ايراده”, “فرهنگ مردم”, “انيس”, “ژوندون”, “كابل”, “زنان افغانستان”, “ملى”, “هيواد”, “ارشاد نسوان”, “هنر” va boshqa internet saytlaridan foydalandik.

Birinchi bobimizning ikkinchi bo'limida, yosh qalamkash Nuriya va Mariyamning hikoyalarida ayol qismatining badiiy talqiniga e'tibor qaratdik. Misol tariqasida, Mariyamning “دهقان شهيد” “Shahid dehqon” nomli kichik hikoyasi va Nuriyaning “كودك و مادر” “Ona va bola” hikoyasini tahlil qilish orqali bu ikki yosh ijodkorlarni bilimga, adabiyotga nechog'lik chanqoq ekanliklarini ko'rishimiz mumkin.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek ikkinchi bobimizni Rahnavard Zaryob va Spujmay(Rauf) Zaryoblarning asarlarida ayol obrazlarini tahlil qildik. Bu ikki ijodkorning yozgan asarlarini o'qir ekanmiz, ularning asarlari o'xshash hamda bir-biridan farq qiluvchi jihatlari bor ekanligiga guvohi bo'ldik.

Garchi bu yozuvchilar ijodida o'ziga xos farqli jihatlari mavjud bo'lsa-da, har ikkalasining ham ijodida ayol timsoli asosiy va muhim mavzulardan biri ekanligi e'tiborga loyiq.

Biz bejizga ayol va erkak yozuvchilarni tanlamadik, ularning ijodlarini tahlil qilish natijasida ayol obraziga har ikkala adib nigohi bilan qaradik va Spujmay(Rauf) Zaryobning yoshgina qizaloqlarga bo'lgan onalarcha mehrini hikoyalari orqali ham aks ettirganligiga guvoh bo'lgan bo'lsak, Rahnavard Zaryobning ona timsolini nechog'lik, mehribon va nozik hilqat etib ta'svirlaganligi fikrlarimizning isboti bo'la oladi.

BMIning quyidagi misralar bilan yakunlamoqchimiz:

Ayol!

Ko'rk-u nafosatini tariflash mahol,

Go'zallik, poklikka eng loyiq timsol.

Mehr-u muhabbati chashmadek zilol,

Sadoqat, vafoga har doim misol.
Chin so'zni aytganda olmangiz malol,
Dunyoda eng aziz siymodir ayol.
Qalblarni yashnatar guldek nafasi,
Olamda yagona mehrin shulasi.

Yaratganni bizga ulug' tuhfasini,
Baxtiyor onalarning orz-u havasi.
Hamisha ortidan nur sochsin bahor,
Dunyoda eng aziz siymodir Ayol.⁴¹

⁴¹. Ayol she'ri. Yana sog'indim, yana... Ahad Qayum. Toshkent-2010.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: havfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T, 1997. B.259
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. Ma'naviyat nashriyoti. Toshkent.:2008.63-bet
3. Abdurahim Mannonov. Afg'oniston xalqlari fol'klori va mumtoz adabiyoti tarixi. Toshkent - 2001. B-35
4. Abdusamadov M. Fors tili. Darslik, Toshkent-2007. B-203
5. А. Герасимова, Г. Гирс. Литература Афганистана. Мос - 1963. стр 93.
6. M.H.Jobal. Negohe ba adabiyote musoer dar Afg'oniston. Kobul - 1958. B -76.
7. A. Habib. Adabiyote musoer. Kobul - 1978. B 45.
8. R.Inomxo'jayev. Hikoya bo'stoni. Toshkent - 1994. B.25
9. O'zbekistonda ijtimoiy fanlar. Toshkent - 1973. B.60-61-62.
10. X.Asoev. Развитие жанров в прозе на дари. Душанбе - 1987. 3-4 стр.
11. Маннанов А.М., Инамходжаев Р. Современная дариязычная литература Афганистана. Ташкент - 1986. 3 стр.

BMI manbaalari:

1. ”زنان افغانستان” [Zanone Afg'oniston]-Afg'oniston ayollari.

2. ”كابل” [Kobul]-Kobul jurnali.
3. ”ژوندون” [Jvandun]-Hayot jurnali.
4. ”انيس” [Anis]-Anis
5. ”فرهنگ مردم” [Farhange mardom]-Xalq hayoti
6. ”ايراده” [Iroda]-Iroda
7. ”ارمان ملي” [Armone milliy]-Millat armoni
8. ”هيواد” [Hivod]-Vatan
9. ”پيام صلح” [Payyome solx]-Tinchlik bitmi
10. ”هنر” [Hunar]-Hunar
11. Rahnavard Zaryob ”پاها” ”Oyoqlar”. Hikoya
12. Rahnavard Zaryob ”بي گل و بي برگ” ”Begul va be barg”. Hikoya
13. Rahnavard Zaryob ”مزدور” ”Yollanma ishchi”. Hikoya
14. Spujmay Zaryob ”ترانهء استقلال” ”Istiqlol taronasi”. Hikoya.
15. Spujmay Zaryob ”خروس من” ”Mening xo`rozim” Hikoya.

Internet saytlari:

1. www.google.uz
2. www.ziyonet.uz
3. www.kabulnath.de
4. www.farsi.ru
5. www.pajhwok.com
6. www.afghanasamai.com
7. www.afgan.ru
8. www.ppazhwak.hozhaber.com

NASHR ETILGAN MAQOLALAR:

1. Kabirova N.Q. Afg'on xalqi og'zaki ijodida ertakchilik janri. 35-bet KAMOLOT SARI (Iqtidorli yoshlar ilmiy to'plami) 3-son. Toshkent -2011.
2. Kabirova N.Q. Arab tilidan o'zlashgan ko'plik otlar. 55-bet SHARQSHUNOSLIKNING DOLZARB MASALALARI (Iqtidorli yoshlar ilmiy anjumani materiallari) 5-son. Toshkent -2011.

3. Kabirova N.Q. "Zanone Afg'oniston" va "Jvandun" jurnallari sahifalarida ayollar ijodi. KAMOLOT SARI (Iqtidorli yoshlar ilmiy to'plami) Toshkent -2012 (nashrda).

4. Kabirova N.Q. Afg'oniston matbuotida ayollar obrazi. ("Zanone Afg'oniston", "Jvandun" va "Hivod") SHARQSHUNOSLIKNING DOLZARB MASALALARI (Iqtidorli yoshlar ilmiy anjumani materiallari) Toshkent -2012 (nashrda).

ILOVA.

1) رهنورد زریاب

داستان کوتاه

پاها

همه جا پا می بود. پاهای گوناگون: پاهای کوچک و بزرگ، پاهای برهنه و پوشیده. با کفشهای کهنه و کفشهای نو. و جرابهای گوناگون: سیاه، سرخ، زرد و آبی. او روزها کبار سرک، روی زانوهای مادرش، افتاده می بود و این همه پاها را می نگریست که از برابر او و مادرش می گذرند. بعضی از این پاها پر سر و صدا می بودند:

- تک، تک، تک!

و بعضی بی سر و صدا و آرام می گذشتند. بعضی از پاها شتاب زده و با عجله می گذشتند و بعضی دیگر آهسته آهسته راه می پیمودند.

و او همچنان روی زانوهای مادرش افتاده می بود و این این پاها را می نگریست. همه جا آوازی، همه می، پیچیده می بود - آواز مردم و موترها - اصلاً پاها در میان این همه می و آواز راه می پیمودند. همه دو آوازا را می شگافتند و جلو می رفته. پاهای گوناگون: پاهای کوچک و بزرگ، پاهای برهنه و پوشیده. با کفشهای کهنه و کفشهای نو. و جرابهای گوناگون: سیاه، سرخ، زرد و آبی.

اینها همه می گذشتند و می رفتند و او کنار سرک روی زانوهای مادرش افتاده می بودند. همیشه نیمه خواب و نیمه بیدار می بود. نیمه بیهوش می بود. توان این را نداشت که بر خیزد و بنشیند و بنشیند نمی توانست مانند پاهای دیگر به راه افتد و برود. خوشش می آمد که همانطور روی زانوهای مادرش افتاده باشد. نیمه خواب و نیمه بیدار. نیمه بیهوش باشد... و در میان آواز و همهمه، در میان پاهای گوناگون که می گذشتند و می رفتند، آواز یکنواخت مادرش را می شنیدید:

- از بهر خدا خیر کنید... به این طفل معصوم...

این کامه ها روزانه هزار ها بار از دهن مادرش می بر آمد و در میان آواز و همهمه، هر میان پاهای گوناگون، گم می شه.

او پسری شش ساله بود، ولی اقدام خیلی کوچکی داشت. زرد و ضعیف بود. بیمار بود. همیشه بیمار بود. سراسر روز را همین طور روی زانوهای مادرش سپری می کرد. و شبها ناراحت می بود. عرق می کرد. تنش کرخت می بود و به سختی خودش را حرکت می داد. در این خال پیوسته خوابهای گوناگون می دید. ولی در همه این خوابها پاها می بودند. پاهای گوناگون، باجرا بهای گوناگون و با کفشهای گوناگون که به چپ و راست می رفتند. بعضی از این پاها با سر و صدا راه می رفتند!

- تک، تک، تک!

و باز هم در همه این خوابها آوازی، همهمه یی را می شنید - آواز مردم و موترها را - صدای یکنواخت مادرش را می شنید:

- از بهر خدا خیر کنید... به این طفل معصوم...

بعد، آوازه ها بلند و بلندتر می شد. گوشخراش می شد. شماره پاها نیز افزایش می یافت. همه جا پر از پا می شد. آسمان را، گرد و پیشش را همه جا را پا می گرفت.

احساس می کرد که از روی سینه وی می گذرند. احساس می کرد که زیر فشار پاها خرد می شود. در این حال مادرش می گفت:

- از بهر خدا خیر کنید... به این طفل معصوم...

و او احساس می کرد که پاها از روی مادرش نیز می گذرند. احساس می کرد که مادرش هم زیر فشار پاها خرد می شود و آواز مادرش را می شنید که بلند و بلندتر می شود:

- از بهر خدا خیر کنید... به این طفل معصوم...

ولی پاهای، پاهای بیشمار، همچنان می گذشتند و می رفتند. و او احساس میکرد که پاهای خودش را و مادرش را خرد می سازند. آن وقت می شنید که مادرش با اصرار فریاد می زند:

- از بهر خدا خیر کنید... به این طفل معصوم... به این طفل معصوم...

آواز مادرش گوشخراش می بودند. و پاهای همچنان گشخراش می بود. و پاهای همچنان می گذشتند و می رفتند. شماره شان خیلی زیاد می بود. آواز مردم و موترها نیز بلند و بلندتر می شد. و او گلوش فشرد می شد. تنشرا درد می گرفت. بیشتر عرق می کرد و در حالی که قلبش به شدت می تپید بیدار می شد.

همه جا سیاه می زد. مادرش کنارش خوابیده می بود. او وحشت می کرد.

خودش را به مادرش می فشرد. باز هم همان حالت نیمه خواب و نیمه بیداری، حامت نیمه بی هوشی، به سراغش میآمد. و پاهار می دید. پاهای بیشمار را با جرابهای گوناگون. و آوازهای بلند و بلندتر را می شنید. صدای یک نواخت مادرش را می شنید:

- از بهر خدا خیر کنید...

شامگهان که مادرش او را به خانه می آورد، همانطور نیمه خواب و نیمه بیدار می بود. مادرش او را در گوشه بی می خوابانید. و او در نور کمفروغ چراغ به دیوارهای بی رنگ اتاق و ستونهای فرسوده چت خیره می شد.

مادرش می رفت بیرون. هنوز آوازهای مردم و موترها در گوشش طنین انداخته می بود. هنوز نظرش میآمه که پاهای از پیش رویش می گذرند و می روند.

نا کفشهای گوناگون - کفشهای نو و کهنه - و مادرش پشت سر هم می گفت:

- به این طفل معصوم... به این طفل معصوم...

مادرش خاموش و افشارده بر می گشت. چیزی برای او آورده می بود که بخورد. او کاسه را می گرفت و باولع شروع به خوردن میکرد. تمام آنچه را که در کاسه می بود، می خورد. از خوردن خوشش میآمد. و بعد، پدرش به اتاق می در آمد. چشمهایش سرخ سرخ می بود و تلو تلو می خورد. پدرش قد بلندی داشت. موهای میانه سرش ریخته بود. موهای دور سرش خاکستری معلوم میشد. همیشه ریشش رسیده می بود.

پدرش هر شب سر و صدا به راه می انداخت. به مادرش دشنام می داد. به این هم بس نمی کرد.
موهای مادرش را به دور انگشتانش می پیچید و با چلیش به سر و صورت می زد.

مادرش اندام کوچکی داشت. مثل خود او ضعیف و ناتوان بود. در زیر ضربه های چلی آرام و بی صدا می گریست. او در حالت نیمه خواب و نیمه بیداری می دید که از سر و صورت مادرش خرن میاید.

و چراغ کمفروغ خانه را روشن می ساخت. صداهای مردم و موتورها شنیده می شد. پاهای بیشمار در رفت و آمد می بودند. به چپ و راست می رفتند. مادرش آرام و بی صدا می گریه به نظرش مس آمد که آهسته می گوید:

- از بهر خدا خیر کنید... به این طفل معصوم...

پدرش از زدن پس می کرد. بوتلی را به دهن می گذاشت و می نوشید. باز هم می نوشید. و او نیمه بیهوش می بود. پدرش درین حال مادرش را بالگد میزد...

باز هم از بوتل می نوشید و فریاد می کشید:

- دوست من، کجا هستی؟

و مادرش می گریست و او باز هم پاها را می دید. با جرابهای گوناگون: سیاه، سرخ، زرد و آبی. دیگر چیزی نمیفهمید. به خواب می رفت. و باز هم پاها را می دید. پاهای گوناگون: پاهای کوچک و بزرگ، پاهای برهنه و پوشیده. و همه بی را می شنید. همه بلند و بلندتر می شد و مادرش با اصرار می گفت:

- به این طفل معصوم... به این طفل معصوم...

و بعضی از پاها با سر و صدا می گذشتند:

- تک، تک، تک!

و صبح ها فضای اتاق پولادی رنگ می بود. مادرش به او چای می داد. پدرش خشمگین و بدخو می بود. برخی از روزها مادرش را می زد. موهایش را دور انگشتهاش می پیچید و با چلیش به سر روی او می زد. و مادرش آرام و بی صدا می گریست.

بعد ، باز هم کنار سرک روی زانوهای مادرش خوابیده می بود. نیمه خواب و نیمه بیدار. و پاهای گوناگون از برابرش می گذشتند. با کفشها و جرابهای گوناگون. بعضی از پاها سر و صدا می گذشتند. و مهمه بی شنیده می شد. در میان مهمه و آواز پاها کلمه های مهدرش می شد:

- از بهر خدا خیر کنید. به این طفل معصوم...

و او نیمه بی هوش می بود.

آن روز کاملاً بی هوش بود. مادرش وقت تر به خانه بردش. در گوشه بی خوابانیدش و خودش رفت که خوردنی بیاورد.

بعد، به خود آمد. سر و صداها را شنید. چشمهایش را که باز کرد، پدرش را دید. پدرش موهای مادرش را به دور انگشتهایش پیچیده بود و با چپایش به سر و صورت او می زد.

سر و صورت مادرش خون آلود بود. پدرش باز هم از بوتل نوشید. باز هم نوشید و باز هم. آن وقت بار دیگر به زدن مادرش شروع کرد.

ناگهان مادرش فریاد زد:

- ای ظالم!

باز هم فریاد کشید:

- مردم، این مرد دیوانه شده!

بعد، پدرش را دید که چاقویی را از جیبش بیرون کشید. چاقو چند بار در هوا بلند شد و فرود آمد. مادرش دیگر فریاد نمی زد. روی زمین افتاده بود. دیگر چیزی نفهمید بی هوش شد. بعد به خود آمد سر و صداها خوابیده بود. و دید که پدرش به تیغه خون آلود چاقو می نگرد. چشمهای پدرش مثل تیغه چاقو سرخ می زد. چاقو را به گوشه بی انداخت. از بوتل نوشید نوشید و نوشید. آن وقت فریاد زد:

- دوست من، کجا هستی؟

و از دروازه بیرون رفت. پسرک قلبش به شدت می تپید. با زحمت از زیر لحاف کهنه برخاست. سرش می چرخید. به سوی مادرش رفت. از سینه مادرش خون میآمد. موهایش خون آلود بود. به

نظرش آمد که بر چشمهای مادرش پرده شفاف خاکستری رنگی کشیده شده است. دهن مادرش باز بود.

از او وحشت کرد. قلبش همچنان می تپید. با سختی از دروازه بر آمد. نه کوچه رفت و کنار در نشست. هوا رو به تاریکی داشت. و باز هم پاها را دید. پاهای گوناگون که به راست و چپ می رفتند. بعضی از پاها با سر و صدا راه می رفتند:

تک، تک، تک!

آوازهای به گوشش می رسید. ولی آواز مادرش نبود. ناله سگی را در کنارش شنید. سگ به پهلو افتاده بود و از سینه اش خون می رفت. به یاد سینه خون آلود مادرش افتاد. بغض گلویش را فشرد و به گریه افتاد. بلند بلند گریستن را گرفت:

- از بهر خدا خیر کنید ... از بهر خدا خیر کنید ... -

ناله سگ بلند تر شد بار دیگر به سوی سگ دید که از سینه اش خون می رود.

گریه اش بلندتر شد:

- از بهر خدا خیر کنید ... از سینه مادرم خون می رود. از سینه مادرم ...

و بعضی پای های آشنایی را دید. پاهای پدرش بود که به سوی او می آمد. به نظرش آمد که پاهای پدرش خون آلود است. به نظرش آمد که همه پاها خون آلود هستند. به نظرش آمد که دیوارها و دروازه ها نیز خون هستند. فریاد زد:

- خون، خون!

به سرفه افتاد. در دهنش چیز گرمی آمد. تف کرد. لخته خون بود. باز هم فریاد زد:

- خون ...

و پدرش به سوی او خم شد. چشمهای پدرش سرخ می زد. پسرک باز هم با وحشت فریاد کشید:

- خون ...

پدرش او را از شانه گرفت. پاهای پدرش را دید که تند تند راه می رود. دیگر چیزی ندید. تنها احساس کرد که پدرش می دود.

پایان.

Oyoqlar

Hamma joyda oyoq bo`lardi. Turli oyoqlar: katta va kichik, kiyimli-yu kiyimsiz. Eski va yangi kavshlar bilan. Turli juroblar: qora, qizil, sariq va oq.

U har kuni ko`cha yuzida onasining tizzasiga boshini qo`yib, onasi va o`zining qarshisidan o`tayotgan barcha oyoqlarni ko`rardi . Ularning ba`zilari shovqinli bo`lardi:

- Tak! Tak ! Tak!

Ba`zilari shovqin-suronsiz sokin o`tardi, ba`zilari shitob bilan zudlik bilan o`tardi va yana boshqalari ohista yo`lida ravona bo`lardi.

U odatdagidek onasining tizzasida yotardi va shu qadamlarni ko`rardi. Hamma yoqda ovoz va shovqinlar aralash bo`lardi. Xalq va mashina ovozi aslida, qadamlarning tovushi mana shu shovqin suronlar ichida davom etardi. Turli oyoqlar: katta va kichik, kiyimli-yu kiyimsiz. Eski va yangi kavshlar bilan. Turli juroblar: qora, qizil, sariq va oq.

Bular hamasi o`tardi va ketardi va ko`cha yuzida onasining tizzasida yotardi. Har doim bedor va uyqusiz bo`lardi. Hushsiz bo`lardi. Na tura olardi va o`tira olardi, oyoqlari turmoqdan, yurmoqdan qolgan edi. Onasining tizzasida yotishni xush ko`rardi. bedor va uyqusiz bo`lardi. Hushsiz bo`lsa. U turli shovqinlar va o`tayotgan turli qadam tovushlari orasida onasining bir xildagi ovozini eshitardi:

Xudo yo`liga xayr qiling... shu ma'sum go`dakka...

Bu so`z har kuni onasining og`zidan ming marta chiqardi va turli shovqinlar va o`tayotgan turli qadam tovushlari orasida yo`qolar edi.

U olti yoshli va jussalari juda kichik bola edi. Nimjon va sariq tusli edi. Kasal edi. Har kuni onasining yelkasida sayr qilardi, va kechqurun bezovta bo`lardi, terlardi. Tanasi karaxt bo`lib o`zida og`riq harakatini sezardi. Bunga bog`liq holda

turli tushlar ko`rar edi. Turli oyoqlar: katta va kichik, kiyimli-yu kiyimsiz. Eski va yangi kavshlar bilan. O`ngu-so`lga ketayotgan oyoqlar. Shovqin bilan ketayotgan oyoqlar:

- Tak! Tak! Tak !

Va yana shu uyqusida ovoz va shovqinlarni eshitardi. Xalq va mashina ovozi aslida, qadamlarning tovushi mana shu shovqin suronlar, onasining bir xildagi ovozini eshitardi:

Xudo yo`liga xayr qiling... shu ma'sum go`dakka...

So`ngra tovushlar baland va balandroq bo`lardi, quloqni teshgudek. Oyoqlarning sanog`i juda ortib ketardi. Hammayoq oyoq bilan to`lardi. Osmon-u falakni oyoqlar egallar edi.

Onasining bag`ridaligini, onasining qadamlar siquvida ekanligini sezardi va balandlashib borayotgan onasining ovozini eshitardi:

Xudo yo`liga xayr qiling... shu ma'sum go`dakka...

Lekin qadamlar va sanoqsiz qadamlar har doimgidek o`tib ketaverardi, va bu oyoqlar uni va onasini bosib ketadigandek bo`lardi. Shu dam onasi faryod urib nola chekardi : Xudo yo`liga xayr qiling... shu ma'sum go`dakka...

Onasining tovushi quloqni teshgudek bo`lardi... va qadam ovozlari ham shunday... bola barchasining siquvida qolardi. Qattiq ter bosardi va yuragi tez urib, bedor bo`lardi. Hamma joy zulmat bo`lib, qarshisida onasi uxlab yotardi. Qo`rquv bosardi.

O`sha kuni to`liq hushsiz bo`ldi, onasi erta uyga qaytdi. Bir chetga yotqizdi va o`zi yegulik olib kelgani ketdi. Bir ozdan so`ng o`ziga keldi. Shovqin - suronni eshitdi. Ko`zini ochdi. Otasini ko`rdi. Otasi qo`liga onasining sochini o`rab olib poyabzali bilan onasini urardi. Onasining tanasida qon rangi tus olgan edi. Otasi

yana ichgan edi. Yana va yana ichgan edi. U shunday vaqtda hamisha onasini urardi.

Nogahon onasi faryod urdi:

- Ey, zolim!

Yana faryod chekdi:

- Bu er jinni bo`lgan!

Otasining pichog`ini qinidan chiqarganini ko`rdi. Pichoq bir necha marta havoda ko`tarilib tushdi. Boshqa narsani tushunmay hushsiz qoldi, o`ziga kelganida shovqin tinchigan edi. Qon tekkan pichog`iga qarab turgan otasini ko`rdi. Otasining ko`zlari pichoq singari qizg`ish edi. Pichoqni bir chetga tashladi. Shishadan bir necha bor ichdi, o`sha payt nola chekdi:

- Do`stim, qayerdasan?

U darvozadan chiqib ketdi. Bola yuragi tez urardi. Qiynalib eski ko`rpa ichidan chiqdi. Boshi aylanardi. Onasi tomonga yurdi. Onasining ko`ksidan qon oqardi. Onasining ko`zlari faqat oq tusda ekanligi ko`ziga tashlandi. Onasining og`zi ochiq edi.

Undan qo`rqdi, yuragi tezlashdi. Mushkullik bilan darvozadan chiqdi. Eshik qarshisida o`tirdi. Qorong`u tusha boshlagan edi. U yana oyoqlarni ko`rdi, o`ng va chapga ketayotgan oyoqlar.

Ovozlarni eshitdi, lekin onasining ovozi yo`q edi. Orqasidan itning ovozi eshitildi. It orqasida yotardi va ko`ksidan qon oqardi. Yodiga qontalash onasining ko`ksi esiga tushdi yig`lay boshladi.

Baland va balandroq yig`lar edi.

(2) سپوژمي زرياب

يکي از برآزنده ترين نويسنده گان معاصر افغانستان است .

سپوژمي زرياب ، که بيش از يك دهه مي شود در فرانسه در تبعيد به سر مي برد ، از يك خانواده تعليميافته کابل برخاسته و کودي و جواني خود را در دوره تحول و ليبراليزه شدن جامعه افغاني سپري نموده است . در اين دوره حداقل براي دختران و زنان شهري افغانستان ممکن گرديد تا آزادانه در زنده گي

اجتماعي سهم بگيرند . در چنين شرايطي سپوژمي زرياب نيز توانست در رشته هنرهاي زيبا و ادبيات در پوهنتون کابل و نيز در فرانسه تحصيل نمايد .

طوري که باري سپوژمي زرياب خود هم ياداوري نموده ، اين پدرش بود که راه او را به سوي ادبيات و هنر باز نمود .

سپوژمي زرياب از آغاز جواني به خلق آثار ادبي پرداخت و در جامعه تبارز نمود و آثارش در حلقه هاي تعليميافته گان مورد توجه قرار گرفت . اکثر داستان هاي سپوژمي زرياب در آن دوره ، مانند بسياري نويسنده گان اروپايي ، مسايل اجتماعي و سياسي را بازتاب مي دادند .

پيش از اين که طالبان کشور را به کلي ويران نمايند ، سپوژمي زرياب با فرزندان خودش به فرانسه مهاجرت نمود . سپوژمي که زمان اشغال افغانستان توسط شوروي را نيز تجربه نموده بود ، اين مسأله را به شيوه خودش بي آلايش ولي تکان دهنده بيان نموده است .

تا به حال ، متأسفانه ، آثار سپوژمي زرياب به زبان آلماني ترجمه نگردیده اند ؛ به همين علت جاي بسيار خوشي است که مجله آسمايي - اوست و ستليشيز ژورنال ، تازه ترين اثر سپوژمي زرياب را به زبان آلماني ترجمه کرده و منتشر مي سازد .

« خروس من » شرايط امروزي جامعه افغاني را- بدون تعيين دقيق زمان - به تصوير کشيده و مورد انتقاد قرار مي دهد . زيبايي داستان در اين است که جريان داستان مغلط نيست و تصوير و يا بيان يك حالت است . در مرکز اين داستان يك خانواده مدرن و داراي ذهن باز قرار دارد . اين خانواده در نگاه نخست ، در مجموع در حالت هماهنگي کامل زنده گي مي کند - گويا که در آن جا هيچ نوع پروبلمي وجود ندارد . پدر اين خانواده ، فرزندان خود را با مهرباني بسيار رهنمايي مي نمايد تا به هنر و ادبيات توجه نمايند و علاقه پيدا کنند و به جستجوي طبعيت بروند . گرچه مادر در اين خانواده نقش سنتي را بازي مي کند ، اما مورد احترام خانواده است . نابينا ي روحاني و روشن ضمير که پيوسته از اين خانواده بازديد مي نمايد نيز بر فضاي پر مهر خانواده مي افزايد و عشق به هنر و برخورد محترمانه بين زن و مرد اين خانواده را تقويت مي بخشد . اين عارف نابينا در عين زمان نماينده غيردگماتيک اسلام است - اسلامي که مملو از بردباري ، مهرباني و عشق است .

در اين ماحول کوچک و ظاهراً زيبا ، روزي يکي از خيشاوندان اين خانواده با خشونت وارد مي گردد . او مرد سنگدل ، پرتعصب و خودخواه است . ورود اين خيشاوند ، هماهنگي اين خانواده را برهم مي زند . اين که او قدرت برهم زدن اين هارموني را دارد ، دال بر اين است که زنده گي آرام خانواده کوچک در جامعه يي که قرار دارد ، جز خيال فريبنده يي بيش نيست . همچنان اين که سپوژمي زرياب جريان داستان را با نگاه به گذشته از ديد دخترک خردسالي که حالا به يك بانو و مادر مبدل شده است و واضحاً تحت قيودات و تحقيرات زنده گي رنج مي برد ، روايت مي کند ، نشان دهنده اين است که نويسنده شرايط زنده گي در جامعه خويش را از موضع بسيار منتقدانه مي نگرد . با وجود اين موضع منتقدانه ، شايسته گي

داستان سپوژمي زرياب در اين است که او مانند بسياري کسان ديگر ، در اين جا يك تصوير سياه و سفيد ارايه نمي دهد . در داستان « خروس من » ، يك مرد روحاني و با معرفت تصوير مي گردد که با بسيار احترام با يك خانم برخورد مي نمايد ، به گپ هاي اين خانم گوش فرامي نهد و از کارش تمجيد مي نمايد . در کنار اين ، تصوير مرد ديگري را هم در اين داستان مي بينيم که در نقش پدر خانواده ، دختر خود را به خلأقيت تشويق و ترغيب مي کند . اين هر دو مرد ، کاملاً بر عکس آن مرد افراطي ديني هستند که پيامش نابودي است .

شاید علت اين که سپوژمي زرياب نمونه مردان مثبت جوامع اسلامي را با بيان ولو کوتاه ترسيم مي نمايد ، اين است که او در زنده گي خودش با اين مردان رو به رو گرديده است . باوجود اين که داستان با چنان آهنگ پر از يأس به پايان مي رسد که نشنيدن آن ناممکن است ، پدر و مرد روحاني نابينا ، بدون شك کساني هستند که منبع اميد در يك جامعه دستخوش تحول به شمار مي روند ، و نويسنده مي خواهد به نقش چنين مردان براي آينده جامعه اشاره نمايد .

مونیکا پاپنفوس دكتور ادبيات است و به حيث منتقد ادبي کار مي کند . آثار وي در رسانه هاي جمعي آلماني منتشر مي شوند . او متخصص ادبيات فرانسه يي است . خانم پاپنفوس با آثار منتشره خانم زرياب به زبان فرانسه يي آشنا است . خانم پاپنفوس ، در سال هاي اخير با آغاز نشرات آسمايي به زبان آلماني ، به ادبيات افغاني نیز علاقه مند گرديده و روي آن مطالعه مي نمايد و براي معرفي ادبيات افغاني ، به خواننده گان آلماني زبان مي کوشد .

خانم پاپنفوس ، همکار دايمي آسمايي است و از نزديك و پيوسته به کار نشرات آسمايي به زبان آلماني - نشریه اوست وستلیشز ژورنال- کمک و مساعدت مي نمايد . □

Spujmay Zaryob.

“Mening xo`rozim” hikoyasiga qisqa taqriz.

Spujmay Zaryob Afg`onistonning eng ko`zga ko`ringan, istedodli zamonaviy yozuvchilaridan biridir.

Kobulning ziyoli o`qimishli oilalaridan birida, bolaligi va o`smirligi o`tgan Spujmay Zaryob ko`pchilik Fransiyaga surgun bo`lganlardan biri edi. Uning yoshlik paytlarini Afg`onistonda ijtimoiy liberalizatsiya jarayoni kechayotgan bir paytga to`g`ri keldi. Bu davrda shaharlik afg`on qizlari va ayollariga ijtimoiy hayotda birmuncha faol bo`lishlari mumkin edi. (ya`ni ularning ham jamiyatda

malum bir ulushlari bor edi). Shunday sharoitlarda ham Spujmay Zaryob Kobul universitetida va Fransiyada ham adabiyot yo`nalishi bo`yicha tahsil oldi.

Spujmay Zaryobning o`zi quyidagicha xotirlaydi: otasi uni adabiyot va san`at yo`nalishga yo`naltirgan va unga bu yo`ldagi eshiklarni ochgan. Spujmay Zaryob yoshligidanoq adabiy asarlar yaratishga kirishdi. Uning asarlari ziyoli insonlar davralarida ham juda katta qiziqishlarga sazovor bo`ldi. Spujmay Zaryobning o`sha vaqtlardagi ko`pchilik dostonlari xuddi yevropa yozuvchilarining asarlari kabi siyosiy va ijtimoiy masalalarni aks ettirar edi.

Tolibonlar mamlakatni butunlay vayron qilishlaridan oldin Spujmay Zaryob o`z farzandlari bilan Fransiyaga ketdi. U Afg`onistonda bo`lib o`tayotgan sho`rolar tuzumi siyosatini tahlil qilib, bu masalani xolis, lekin tasirli qilib bayon qilgan edi.

Afsuski, to hozirgacha Spujmay Zaryobning asarlari nemis tiliga tarjima qilinmagandir shu sababdan “Asmoiy” va “Ust stiliser” jurnallari uning eng yangi asarini nemis tiliga tarjima qilib, nashr qildirayotgani quvonarlidir.

“Mening xo`rozim” hikoyasi ham bugungi afg`on jamiyatidagi sharoitni , zamonani nozik o`rganish bilan emas, balki tanqidiy holda tasvirlagan.

Dostonning go`zalligi shundaki, undagi jarayonlar yopiq holatda emas, balki bayon bilan tasvir o`zaro uyg`unlikdadir. Bu doston markazida bir zamonaviy aqlli oila turadi. Bu oila bir qarashda hamma kabi bir jamiyatda barcha bilan hamohanglikda yashaydi. Go`yoki u yerda hech qanday muammo yo`qday,! Bu oilaning otasi o`z farzandlariga juda mehribonlik bilan tarbiya beradi, ularni adabiyotga san`atga qiziqishlariga, tabiatdan yangiliklar qidirishlariga qarshilik qilmaydi. Garchi oiladagi ayol milliy an`anaviy obrazda o`ynagan bo`lsada u oilasiga juda mehribon va oilasini juda hurmat qiladi. Ruhoniyning ko`rligi lekin sezgirligi bu oila bilan bog`langan holda oila az`olari er va xotinning o`zaro hurmati va san`atga qiziqishini yanada kuchytirib beradi ya`ni ruhoniy ko`r bo`lsa ham bularni sezadi. Bu ko`zi ojiz bilimdon ayni vaqtda Islom aqidaparastligiga qarshi chunki Islom mehribonlik, muhabbat va birodarlik bilan to`ladir.

Shu orada bu kichik hikoyaga kunlarning birida ko`rinishidan chiroyli bo`lgan ushbu xonadonning qarindoshlaridan biri “qo`pol ravishda” kirib keladi. U bag`ritosh, asabiy va o`zini o`ylaydigan odam edi. Bu qarindoshning kirib kelishi oiladagi birdamlik va tinchligini buzadi. U buni buzishi asarda o`ziga xos ohangdorlik kasb etadi. Bu shunga dalolat qiladiki, jamiyatda bir kichik oilaning tinch-totuv hayoti uning nazarida yolg`onchilikdan boshqa narsa emas. Shuningdek Spujmay Zaryob doston syujetlarini hozirda ayol bo`lib, ona bo`lgan, qiyinchiliklardan va tahqirlardan qiynalgan o`sha kichkina aqlini tanigan qizcha nigohidan o`tkazib aniq ravishda hikoya qiladi. Bu shundan nishonaki, yozuvchi o`z jamiyatidagi ijtimoiy hayot sharoitlarini o`z mavzusida juda qattiq tanqid qilgan. Shunday tanqidlar bo`lishiga qaramay Spujmay Sipujimiy Zaryob bu dostonda boshqa odamlar qiyofasida qora va oq tasvirlarni ko`rsatmaydi. “Mening xo`rozim” hikoyasida bir ruhoniy erkak tasvirlangan bo`lib, u bir juda hurmatli xonim bilan uchrashadi va bu xonimning gaplari uning qulog`iga yoqadi. Bu tasvir orqasida yana bir erkakni qizning otasini ham bu dostonda ko`rammiz, u o`z qizini yaratuvchanlikka undaydi va uni qo`llab quvvatlaydi. Bu ikki erkak boyagi diniy peshvoning tamoman aksidirlar.

Balki Spujmay Zaryob islomiy jamiyatdagi erkaklarni namuna sifatida tasvirlaganining sababi, uning o`zi ana shunday erkaklar bilan hayotda yuzma-yuz kelganidir. Bu doston naqadar ayanchli, afsusli tarzda nihoyasiga yetsa ham uni eshitmaslik mumkin emas. Ota va ruhoniy erkak shubhasiz o`sha jamiyatni yaxshilik tomonga buradigan va umid manbayi bo`lgan insonlardandirlar. Yozuvchi o`z navbatida bu obrazlar orqali kelajakda jamiyatni rivojlantiradigan erkaklarga ishora qilmoqda.

Monika Popinfos adabiyot sohasi professori bo`lib, u adabiy tanqidchi bo`lib ishlaydi. Uning asarlari Germaniya jamiyatida nashr qilinadi. U fransuz adabiyoti bo`yicha mutaxassisdir. Popinfos xonim Zaryob xonimning fransuz tilida chop etilgan asarlari bilan tanish. Popinfos xonim so`nggi yillarda Afg`on

adabiyotiga qizishi ortib ularni mutolaa qilib, nemis o`quvchilariga afg`on adabiyotini ommalashtirish va chop etish bilan shug`ullanmoqda.

Popinfos xonim “Asmoyi” ning doimiy hamkoridir va yaqinda nemis tilidagi nashrlar bilan bir qatorda “Ustu Stilishez” jurnaliga ham ko`mak bermoqda.